

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FIL/PED83.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XUDAYBERDIYEVA DILFUZA MUXTAROVNA

**SERGEY YESENIN LIRIKASI XX ASR O‘ZBEK SHE’RIYATI TALQINIDA
(Erkin Vohidov va Usmon Azim ijodi misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand - 2023

**Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
филологическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
On Philological sciences**

Xudayberdiyeva Dilfuza Muxtarovna

Sergey Yesenin lirikasi XX asr o'zbek she'riyati talqinida (Erkin Vohidov va Usmon Azim ijodi misolida) 3

Худайбердиева Дилфуза Мухтаровна

Лирика Сергея Есенина в призме узбекской поэзии XX века
(на примере творчества Эркина Вохидова и Усмона Азима) 29

Khudayberdieva Dilfuza Muxtarovna

Sergei Yesenin's lyrics in the interpretation of XX-century uzbek poetry
(on the example of the work of Erkin Vohidov and Usmon Azim) 55

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works 59

**SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.03/30.12.2019.FIL/PED83.01.
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

XUDAYBERDIYEVA DILFUZA MUXTAROVNA

**SERGEY YESENIN LIRIKASI XX ASR O‘ZBEK SHE’RIYATI TALQINIDA
(Erkin Vohidov va Usmon Azim ijodi misolida)**

10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog‘ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik

**Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERAT**

Samarqand - 2023

Filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasida №2021.B2021.1.PhD/Fil 995 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Samarqand davlat chet tillar institutida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasining www.samdchti.uz hamda "ZiyoNET" Axborot-ta'lim portali www.ziyo.net uzmanzillariga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Umurova Go'zal Hotamovna
filologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponenlar:

Bushuy Tatyana Anatolyevna
filologiya fanlari doktori, professor

Davronova Maxfuza Isroilovna
filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Dissertatsiya himoyasi Samarqand davlat chet tillar instituti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01-raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil «7» iyun soat 10 dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel.: (99866) 238-29-37; faks: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.).

Dissertatsiya bilan Samarqand davlat chet tillar institutining Axborot-resurs markazidatanishish mumkin 64576 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, O'zbekiston, Samarqand, Bo'stonsaroy ko'chasi, 93-uy. Tel: (99866) 238-29-37.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil «7» iyun kuni tarqatildi.
(2023-yil «7» iyun dagi № 76 raqamli reyestr bayonnomasi).



[Handwritten signature]

I.M.Tuxtasinov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, pedagogika fanlari doktori, professor

[Handwritten signature]

G'.Q.Mirsanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, filologiya fanlari doktori, dotsent

[Handwritten signature]

Sh.S.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, filologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahon adabiyotshunosligi tarixi shuni ko'rsatadiki, taraqqiyotining turli bosqichlarida milliy adabiyotlar bir-birlari bilan u yoki bu darajada aloqada bo'ladi, yaqin munosabatga kirishadi, o'zaro bir-biriga ta'sir etib, yangi va yangi badiiy oqimlar, shakllarni hosil qiladi. Mazkur jarayonda Sharq va G'arb badiiy tafakkurining, ijodiy izlanishlarining o'zaro bog'liqligi, tipologik o'xshashligi, an'analar izchilligi kabi omillar hal qiluvchi o'rin tutmoqda. Bu omillar milliy adabiyotimizni tadqiq etish, uning eng sara namunalarini jahon bo'ylab keng targ'ib qilish imkoniyatini kengaytirishi dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Dunyo adabiyotshunosligida u yoki bu madaniyatni, bizningcha, madaniyatlararo aloqalar rakursida ko'zdan kechirish mantiqli va tabiiydek ko'rinadi. Chunki har qanday milliy madaniyat boshqasining fonida teranroq va to'laroq namoyon bo'ladi. Jahon adabiyotidagi ana shunday o'zaro ta'sirga yaqqol misol tariqasida rus va o'zbek xalqlarining yuz yildan ziyod vaqt mobaynidagi tarixiy-madaniy munosabatlarining zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Bugungi kunda O'zbekiston o'z taraqqiyotining yangi, yuksak bosqichiga qadam qo'ymoqda. Mamlakatimiz milliy tiklanishdan – milliy yuksalishga erishishni o'z oldiga eng muhim va ustuvor vazifa qilib qo'ygan. Bu ulug' maqsadga esa jahon ahli bilan hamjihat va hamkor bo'lib yashash, ochiq demokratik jamiyat qurish, hayotimizda milliy va umumbashariy qadriyatlarga hurmat tuyg'usini yanada keng qaror toptirish orqaligina erishish mumkin. "Ayni shu nuqtai nazardan qaraganda, o'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilish, ko'pqirrali bu mavzuni bugungi kunda dunyo adabiy makonida yuz berayotgan eng muhim jarayonlar bilan uzviy bog'liq holda tahlil etib, zarur ilmiy-amaliy xulosalar chiqarish, kelgusi vazifalarimizni belgilab olish, o'ylaymanki, katta ahamiyatga ega"¹. Tadqiqotimiz o'tgan asrning yorqin va betakror shoirlaridan biri Sergey Yesenin ijodining XX asr o'zbek she'riyati vakillari – Erkin Vohidov va Usmon Azim ijodiga ta'sirini izchil tahlil qilish yo'lidagi ilk urinish hisoblanadi. Uzoq yillar mobaynida rus-o'zbek adabiy aloqalari o'rganilganiga qaramasdan, muammoning bu tarzda qo'yilishi ushbu yo'nalishda hali ko'plab masalalar hal etilmaganligi bilan izohlanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmoni, 2017-yil 24-maydagi PQ-2995-son "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi, 2017-yil 13-sentyabrdagi PQ-3271-son "Kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ'ib qilish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to'g'risida"gi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018-yil 16-fevraldagi 124-F-sonli "O'zbek mumtoz va zamonaviy adabiyotini xalqaro miqyosda o'rganish va targ'ib qilishning dolzarb masalalari" mavzusidagi xalqaro konferensiyani o'tkazish to'g'risida"gi farmoyishi hamda

¹ Мирзиёев Ш. "Ўзбек мумтоз ва замонавий адабиётини халқаро миқёсда ўрганиш ва тарғиб қилишнинг долзарб масалалари" мавзусидаги халқаро конференция иштирокчиларига табрик. "Халқ сўзи" газетаси, 2018 йил 7 август. <https://xs.uz/uzkr/4835>

sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaldagi ijrosi sifatida ushbu tadqiqot muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, xuquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-ma'rifiy rivojlantirishda, innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Rus-o'zbek adabiy aloqalari tarixini o'rganish XIX asr oxirida boshlangan bo'lib, XX asr boshlarida rus sharqshunosligida izchil davom ettirildi. Sharqning buyuk shoirlari Firdavsiy, Umar Xayyom, Sa'diy Sheroziy, Hofiz, Navoiy va boshqa shoirlar nazmini o'rganishning eng muhim, metodologik jihatlari rus sharqshunoslaridan N.Konrad¹, V.Eberman², Ye.E.Bertels³ va boshqa olimlarning⁴ ilmiy tadqiqotlarida ishlab chiqilgan edi. Keyinchalik, rus sharqshunosligi qatori, rus-o'zbek adabiy aloqalari muammolarini o'rganishda sobiq ittifoq respublikalari olimlarida ham tajriba orta bordi. L.Grossman, P.I.Tartakovskiy, Ye.A.Ilyushin, Ye.Chelishev, X.Shodiqulov, I.Sulton, S.Mirzayev, N.Karimov va boshqalarning sharq she'riyatining rus adabiyoti va uning alohida vakillari ijodiga ta'siri xususidagi monografiya, maqola, nomzodlik va doktorlik dissertatsiyalari ko'rinishidagi qimmatli tadqiqotlari yuzaga keldi. Ta'kidlash joiz, yuqorida nomlari sanalgan sharqshunos-u adabiyotshunoslarning aksariyat ishlari Sharq adabiyotining rus adabiyotiga ta'siriga bag'ishlangan. Ayni paytda, bu tadqiqotlarning asosiy qismi A.S.Pushkin, M.Yu.Lermontov, N.V.Gogol, N.Gumilev kabi so'z san'atkorlari ijodi bilan bevosita bog'liq. Biroq, mavjud adabiyotlar tahlili shundan dalolat beradiki, ko'p sonli ilmiy ishlarga qaramasdan, rus-o'zbek adabiy aloqalari, ayniqsa, rus adabiyotining o'zbek adabiyoti va uning alohida vakillari ijodiga ta'siri hanuz kam o'rganilgan masalaligicha, ba'zi jihatlari esa teginilmasdan qolmoqda.

¹Конрад Н.И. Запад и Восток. – Москва: «Наука», 1966. –520 с.

²Эberman В.А. Начало персидской поэзии // Вопросы литературы. 2017, №3. - С. 314-346.

³Бертельс Е.Э. Абдурахман Джами и его дружба с Навои // Известия Академии наук СССР. Отделение литературы и языка. – Москва,-1947. - Т. 6. - Вып. 6. - С. 463-474; Махтум-Кули о художественном творчестве // Совет Эдебиети. - Ашхабад, 1944. - № 7. - С. 128-138; Джами. [1414-1492]: Эпоха, жизнь, творчество / Е. Э. Бертельс; Под общ. ред. акад. Е. Н. Павловского; Тадж. филиал Акад. наук СССР. Ин-т истории, языка и литературы. – Сталинабад: Таджикгосиздат, 1949.-175 с.

⁴Базанов В. Сергей Есенин и крестьянская поэзия. -Л., 1982. – 200 с; Клинг О. Поэтическое самоопределение Есенина и символизм // Филологические науки. 1985. № 6. -С. 10-16; Крюкова А. Николай Асеев и Сергей Есенин: к истории литературных и творческих отношений // В мире Есенина. М., 1986. -С. 523-538; Мекш Э. Сергей Есенин в контексте русской литературы. Учебное пособие. –Рига, 1989. –78 с; Савченко Т.К. С.Есенин и его окружение. Литературно-творческие связи. Взаимовлияния. Типология. М., 1991. – 62 с ; Хазан В. Ахматова и Есенин: предварительные заметки к теме // Материалы к спецкурсу «Из истории русской поэзии серебряного века». Вып. 1. - Грозный, 1992. -С. 78-91; Бубнов С.А. Поэзия Коржан В. Есенин и народная поэзия. -Л., 1969. – 49 с; Жаворонков А.З. С.А.Есенин и русские писатели XIX-XX в // Ученые записки Кировского гос. пед. института им. В.И.Ленина. Вып. 49. – Киров, 1971. –104 с; Харчевников В.О. Пушкинской и Лермонтовской традициях в поэтическом стиле Сергея Есенина // Поэтика и стилистика русской литературы. -Л., 1971. -С. 292-300; Турбин В. Традиции Пушкина в творчестве Есенина // В мире Есенина. М., 1986. -С. 264-284; Юдкевич Л.Г. Лирический герой Есенина. –Казань, 1971; Ермилова Е. О лирическом герое Есенина // В мире Есенина. М., 1986. - С. 227-245; Киселева Л.А. Христианско-иконографический аспект изучения поэтики Сергея Есенина / Актуальные проблемы научного издания. Есенинский сборник Вып. II. – М., Наследие, 1995. -С. 168-180; Захаров А.Н. Художественно-философский мир Сергея Есенина: Дисс... докт. фил. наук. – Москва, 2005.-240 с.

O‘zbek adabiyotida Sergey Yesenin ijodini o‘rganish 20-asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Ilk bor rus shoiri Sergey Yesenin nomi 1918-yil Turkiston matbuotida tilga olinadi. 1918-yil 16-yanvarda Toshkentdagi “Ozod Turkiston” gazetasida shoir Aleksandr Shiryayevning “Три богатыря (О поэтах из народа)” nomli maqolasi chop etilib, unda Nikolay Klyuev, Sergey Klichkov va Sergey Yesenin ijodi haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Maqolada muallif yosh Sergey Yesenin haqida shijoat bilan yozadi. Keyinchalik, 1924-yildan boshlab, Turkiston va o‘zbek matbuotida Yesenin haqida birorta ham ma’lumot yo‘q, garchi shoir 1921-yil may oyida Toshkent va Samarqandda bo‘lgan, o‘z she‘rlarini o‘qigan, mahalliy shoir va rassomlar bilan uchrashgan. S. Yesenin hayotidagi ushbu voqea haqidagi nashrlar O‘zbekistonda emas, balki Moskvada paydo bo‘ldi. Yeseninni yaxshi bilgan shoir Valentin Ivanovich Volpin (1891-1956) 1926-yili “Воспоминания о С.Есенине” to‘plamida (M., 1926) shoirning Toshkentga qilgan sayohati, Ijorskaya ko‘chasidagi Turkiston jamoatchiligi kutubxonasida uning 1925-yil 25-maydagi she‘riyat oqshomi va “Пугачёв” ning birinchi taqdimoti haqida so‘z yuritadi.

1950-1960-yillarda rus adabiyotida shoir ijodiy merosiga bo‘lgan ilmiy qiziqishning qayta tiklanishi O‘zbekiston adabiyotshunoslari tomonidan qo‘llab-quvvatlandi. O‘zbek yeseninshunosligining birinchi qaldirg‘ochi deb, 1960-yil “Sharq Yulduzi” jurnalida moskvalik adabiy tanqidchi V.Zemskovning “Сергей Есенин в Ташкенте”(1960) nomli maqolasini qayd etish mumkin. Muallif V.Volpin maqolasidan foydalanib, uni Yeseninning yaqin do‘sti, shoir Aleksandr Shiryayevning ijodi haqida yangi ma’lumotlar bilan to‘ldirgan.

1965-yildan keyin O‘zbekistonda S.Yesenin hayoti va ijodiga oid turli materiallar muntazam nashr etila boshlandi. 2005-yilga kelib, ilmiy, ilmiy-ommabop, she‘riy va axborot nashrlari soni 400 nomdagi kitoblar, to‘plamlar, risolalar, jurnal va gazeta maqolalaridan iborat bo‘ldi.

Nashr etilgan materiallar ichidan bir qancha yirik bloklarni, jumladan, O‘zbekiston yeseninshunoslarining ilmiy tadqiqotlari, o‘lkashunoslik materiallari, yubiley va muhim sanalarga bag‘ishlangan ilmiy-ommabop va ma’rifiy maqolalar, Sergey Yesenin muzeyi faoliyati haqidagi axborot nashrlar, Toshkentda Yesenin ixlosmandlarining turli uyushmalari, shuningdek, Yeseninga bag‘ishlangan she‘riy asarlarni ajratib ko‘rsatish mumkin.

“Sharq yulduzi” jurnalida (1987) birinchi marta Yeseninning yaqin do‘sti Nadejda Davidovna Volpinning “Глазами друга. Воспоминания о Сергее Есенине” to‘liq metrajli xotiralari nashr etilgan. O‘zbekiston ilmiy yeseninshunosligi V.Korjan, E.Malinovskiy, P.Tartakovskiy, I.Temkina va boshqalarning nomlari bilan namoyon bo‘ldi.

Farg‘onalik adabiyotshunos V.Korjan ko‘p yillar davomida Yesenin she‘riyati va rus xalq ijodi o‘rtasidagi turli bog‘liqliklarni tadqiq qiladi. Uning tadqiqotining asosiy vazifalari birinchi nashrida bayon etilgan¹.

Samarqandlik tilshunos olim Евгений Malinovskiy S.Yesenin ijodida tilning obrazli va poetik vositalarini tadqiq etgan². Olimning “К эволюции поэтического языка С. Есенина. (Цветобозначения в ранних и поздних стихотворениях поэта)”, “Красочный элемент оценочно-определяющего характера как

¹Коржан В. В. К вопросу об изучении фольклоризма Есенина // Русская литература, 1965. - № 2.-76 с.

²Малиновский Е. А. Место и роль фразеологии в поэзии С.Есенина // Русский язык в школе. 1986.-№ 4.-404 с.

образно-изобразительное средство языка в ранних произведениях С. Есенина”, “Из наблюдений над устойчивыми словесными комплексами в ранних стихотворениях Сергея Есенина” ilmiy nashrlari mutaxassislar tomonidan ijobiy baholandi va 1971-yilda “Устойчивые словесные комплексы в творчестве Сергея Есенина (К изучению эволюции языка и фразы поэта)” mavzusida nomzodlik dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qilishga imkon berdi. Keyinchalik E.Malinovskiy Yesenin asarlari tilini o‘rganishni davom ettirdi, asosiy e’tiborni frazeologiyaga qaratdi. Bular “О специфике употребления фразеологии в сопоставлении с лексикой в произведениях Есенина” (1972), “Место и роль разговорной фразеологии в произведениях Есенина периода имажинизма” (1974) va boshqalar.

“Yesenin va Sharq” mavzusini yoritishda toshkentlik adabiyotshunos P.I.Tartakovskiy katta hissa qo‘shgan¹. Uning shu mavzuda “Пути содружества” jurnalida (1966, 1-son) chop etilgan birinchi maqolasida Yeseninning sharq mumtoz she’riyati bilan ijodiy aloqalarining asosiy bosqichlari belgilangan. Bu mavzu “Очерки истории русской литературы Узбекистана”da (1967) yanada rivojlantirildi. Yeseninning “Fors taronalari” P.Tartakovskiyning alohida tadqiqot ob’ektiga aylandi. Yeseninning ushbu she’riy turkumining o‘ziga xosligi Moskvadagi “В мире Есенина” (1986) nomli to‘plamda nashr etilgan “Я иду изучать... “Персидские мотивы” Сергея Есенина и восточную классику” maqolasida batafsil ko‘rib chiqiladi. “Fors taronalari”ning yaratilish tarixini puxta o‘rgangan toshkentlik olimning xulosasiga ko‘ra, “Yesenin turkumi” fors she’riy maktabining estetik muhitida rivojlangan, Yesenin esa mualliflarning anig asarlari bilan emas, balki butun sharqning poyetik madaniyati bilan o‘zaro munosabatda bo‘lgan va bu Yeseninning “Fors taronalari”ni yaratilishida muhim bir turtki sanalgan.

P.Tartakovskiyning fikriga ko‘ra, “Fors taronalari”ning yaratilishi Yeseninning 1921-yilda Turkiston madaniyati va hayoti bilan shaxsan tanishgan davrga to‘g‘ri keladi. Tadqiqotchi Z.Amonova S.Yeseninga bag‘ishlangan anjumanda maqolalar to‘plamini nashr etib, salmoqli hissa qo‘shganlardan biridir². Biroq, O‘zbekistonda S.Yesenin ijodining eng ashaddiy muxlisi deb, S.I.Zininni hisoblash mumkin. “S.A.Yesenin va hozirgi davr” (Toshkent, 2005) ilmiy-amaliy konferensiya materiallarida ilk bor S.I.Zinin tomonidan kitob, jurnal va gazeta nashrlarining eng to‘liq ro‘yxati keltirilgan. Bu esa shoirning “Yesenin va Sharq”, “Yesenin va o‘zbek shoirlari”, “Yesenin Turkistonga sayohati” va hokazo kabi ijodiy mavzulariga qiziqish bildirgan har qanday kishiga asqotadi³.

A. S.Pushkin, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy, A.Blok, I.Bunin, S.Yesenin, V. Mayakovskiy, Ye.Yevtushenko, R.Rojdestvenskiy kabi taniqli rus shoir va yozuvchilarining ijodi o‘zbek she’riyati va nasriga katta ta’sir ko‘rsatganligi ma’lum. Rus adabiyotining o‘zbek adabiyotiga ta’siri ko‘plab tadqiqotchilar tomonidan o‘rganilgan. Ammo mashhur rus shoiri Sergey Yesenin lirikasining XX asr o‘zbek she’riyatiga ta’siri masalasi, afsuski, haligacha to‘liq o‘rganilgani yo‘q.

¹ Русские поэты и Восток: Бунин. Хлебников. Есенин: Статьи / П. Тартаковский. – Ташкент: Изд-во лит. и искусства, 1986. – 252 с.

² Амонова З. К. Поэзия Сергея Есенина в школах с узбекским языком обучения (Посвящается 120-летию поэта) // Редакционная коллегия. – Бухара: Изд-во БухДУ, 2014.-13 с.

³ Зинин С.И. Поездка Есенина в Туркестан. Электронный ресурс: <https://esenin-museum.uz/zinin-poezdka-esenina-v-turkestan/>

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya mavzusi Samarqand davlat chet tillar instituti rus tili va adabiyoti kafedrasining "Pragmatik va kognitiv adabiyotshunoslikning nazariy va amaliy masalalari: qiyosiy-tarixiy tahlil va tarjimashunoslik aspekti" yo'nalishidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liq.

Tadqiqotning maqsadi XX asr o'zbek lirikasida Sergey Yesenin she'riyatining qabul qilinishi (retsepsiya) va uning Erkin Vohidov va Usmon Azim she'riyatiga ta'sirini o'rganishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Sergey Yesenin ijodi va uning "Fors taronalari"ning o'zbek adabiy tafakkuri taraqqiyotidagi o'rnini ochib berish;

Sergey Yesenin badiiy dunyosi unsurlarining o'zbek she'riyatida aks etishini qiyoslash va umumlashtirish;

"Fors taronalari"ning o'zbek tiliga tarjimasining mavjud variantlarini solishtirish;

o'zbek shoirlari Erkin Vohidov va Usmon Azim ijodidagi Yesenin she'riyati uchun xos bo'lgan motivlar hajmini aniqlash.

Tadqiqotning obykti sifatida Sergey Yesenin qoldirgan boy ijodiy meros hamda Erkin Vohidov va Usmon Azim she'riyati namunalari tanlangan.

Tadqiqotning predmetini o'zbek-rus adabiy aloqalarining eng muhim jihatlari, adabiy ta'sir va milliy adabiyotlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik, zamonaviy o'zbek she'riyatidagi Yeseninga xos motivlar tashkil etadi.

Tadqiqot usullari. Mavzuni yoritishda tarixiy va adabiy tahlil, qiyosiy-tarixiy va qiyosiy-tipologik tahlil usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Sergey Yesenin "Fors taronalari" turkumining XX asr o'zbek she'riyatiga lirik xotimadagi keskinlik, lirik qahramon psixologik holatidagi dramatism, sevikli yor va mahbuba iztirobining quyuq tasvirda berilishi kabi ta'sir darajalarining badiiy-uslubiy, emotsionallik jihatlari isbotlangan;

Sergey Yesenin va Tilak Jo'ra, Muhammad Yusuf lirikasidagi oq qayin-lolaqizg'aldoq, bepayon bedazor-tanish teraklar, atirgul ayriliq, atirgul sevgi singari ramzlarining sharq va g'arb adabiyotidagi semantik ma'nolari aniqlangan;

Usmon Azim va Sergey Yesenin she'riyatidagi ohang, mavzu, motivlardagi o'xshash hamda xona, bekat, uy, bog', dala tasvirlarida metafora qo'llashdagi makon va zamonda yuz beradigan ijtimoiy-psixologik farqliliklar ochib berilgan;

o'zbek shoirlari ijodida Sergey Yesenin ta'sirida yuzaga kelgan soddalik, ixchamlilik, xalqonalik, mavzular rang-barangligi kabi uslubning shakllanishida diniy, etnik, tarixiylik, mifologik farqliliklarning madaniy, estetik tomonlari dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

tadqiqot natijalari Yesenin lirikasi va poetik an'analarning o'zbek she'riyati rivojida tutgan o'rnini yaxlit monografik planda maxsus o'rganilib, ilmiy-nazariy xulosalarga kelinganligi adabiy ta'sir, poetika muammolari bo'yicha tadqiqotlar bazasini to'ldiradi, hamda poetik olam masalasini o'rganishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlarga manba bo'lib qo'shiladi;

lirik sub'yekt, lirik kechinma va qahramon tabiatiga doir kuzatishlar ijodkor olamini adabiy jarayon rivoji asnosida turli-tuman badiiy usul va yo'sinlar bilan boyib boradigan alohida tizim sifatida ko'rib chiqishga, turli shoirlar asarlarining badiiy-estetik tamoyillari tizimini qiyosan o'rganishga ko'maklashishi asoslangan;

tadqiqot jarayonida to'plangan faktik materiallar Yesenin lirikasida va Erkin Vohidov hamda Usmon Azim she'rlarida aks topgan mavzular namunalari bo'lib, ularning mazmun tuzilishi borasida bildirilgan fikr-mulohazalardan shoirlarning ijod olami manzarasini o'rganishda foydalanish mumkinligi isbotlangan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi Sergey Yesenin ijodining XX asr o'zbek she'riyat vakillari ijodiga o'tkazgan ta'siri nazariy poetika o'zanida ko'zdan kechirilganligi, bunda qiyosiy-tarixiy, qiyosiy-tipologik, biografik, struktural tahlil usullaridan foydalanilganligi, adabiyotshunoslikdagi zamonaviy yondashuvlardan kelib chiqib, retseptiv o'zlashtirish, adabiy ta'sirga xos yangi qarashlar ishlab chiqilganligi, nazariy tushunchalarga ilmiy tavsif berishda, Yesenin va o'zbek shoirlari poetikasini yoritishda jahonning yetakchi adabiyotshunoslik ilmiy maktablari vakillarining estetik konsepsiyalariga tayanilganligi, shu asosda ilmiy-nazariy xulosalar chiqarilganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati zamonaviy o'zbek she'riyat tarixi va nazariyasini yaratishda, xususan, tasvir obyekti va subyekti bo'lgan lirik qahramon kechinmalarini tahlil qilish, adabiy ta'sirga oydinlik kiritishda, lirika janrlarining rivojlanish qonuniyatlarini, badiiy-estetik tabiatiga daxldor masalalarni qiyosiy o'rganishda foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalari amaliy ahamiyati uning materialidan oliy ta'lim tizimida "Adabiyot nazariyasi", "Jahon adabiyoti tarixi", "Badiiy tahlil asoslari", "Hozirgi adabiy jarayon" kabi fanlar bo'yicha ma'ruza va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishda, ixtisoslik fanlarining nazariy bazasini shakllantirishda, hamda dissertatsiyalarni yozishda foydalanish mumkinligida namoyon bo'ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Sergey Yesenin lirikasi Erkin Vohidov va Usmon Azim ijodi talqini yuzasidan olingan ilmiy natijalar asosida:

"Fors taronalari" turkumining XX asr o'zbek she'riyatiga lirik xotimadagi keskinlik, lirik qahramon psixologik holatidagi dramatism, sevikli yor va mahbuba iztirobining quyuq tasvirda berilishi kabi ta'sir darajalarining badiiy-uslubiy, emotsionallik jihatlari borasidagi ilmiy natijalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy tadqiqot institutida 2017-2020-yillarda bajarilgan "Qoraqalpoq folklorshunosligi va adabiyotshunosligi tarixini tadqiq etish" mavzusidagi FA-F-1-005 raqamli fundamental loyihasida foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog'iston bo'limining 17-01/107-son ma'lumotnomasi). Natijada loyiha tadqiqotlari rus va Sharq adabiy an'analari haqidagi ilmiy ma'lumotlar bilan boyitilgan;

O'zbek shoirlari ijodida Yesenin ta'sirida yuzaga kelgan soddalik, ixchamlilik, xalqonalik, mavzular rang-barangligi kabi uslubning shakllanishida diniy, etnik, tarixiylik, mifologik farqliliklarning madaniy, estetik tomonlari dalillangan xulosalardan O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Qoraqalpog'iston

bo‘limi Qoraqalpoq gumanitar fanlar ilmiy-tadqiqot institutida 2012-2016- yillarda bajarilgan “Qoraqalpoq folklori va adabiyoti janrlarining nazariy masalalarini tadqiq etish” mavzusidagi FA-F1-G002 raqamli fundamental loyihada foydalanilgan (O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limining 17-01/107-son ma’lumotnomasi). Natijada bu tadqiqot loyihasini S.Yesenin va E.Vohidov, U.Azim kabi o‘zbek shoirlarining tipik folklor motivlaridan foydalanish mahoratiga oid materiallar bilan boyitishga xizmat qilgan;

Sergey Yesenin va Tilak Jo‘ra, Muhammad Yusuf lirikasidagi oq qayin-lolaqizg‘aldoq, bepayon bedazor-tanish teraklar, atirgul ayriliq, atirgul sevgi singari ramzlarining sharq va g‘arb adabiyotidagi semantik ma’nolari aniqlangan o‘rinlardan Yevropa ittifoqining Erasmus+dasturining 2016-2018-yillarga muljallangan 561624-YeRR-1-2015-UK–EPPKA2-CBHE-SP-ERASMUS+CBHE IMEP: “O‘zbekistonda oliy ta’lim tizimi jarayoni modernizatsiyalash va xalqarolashtirish” nomli innavatsion tadqiqotlar loyihasida foydalanilgan (Samarqand davlat chet tillar institutining 2481/30.02.01-son ma’lumotnomasi). Natijada Sharq va rus adabiy an‘analarining sintezi natijasida yangi tonalik va yo‘nalishlarning shakllanishi asoslangan;

Usmon Azim va Sergey Yesenin she’riyatidagi ohang, mavzu, motivlardagi o‘xshash hamda xona, bekat, uy, bog‘, dala tasvirlarida metafora qo‘llashdagi makon va zamonda yuz beradigan ijtimoiy-psixologik farqliliklar ochib berilgan xulosalardan Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining “Assalom, Samarqand” ko‘rsatuvi stsenariysini tayyorlashda foydalanilgan (Samarqand viloyat teleradiokompaniyasining 2022-yil 10-iyundagi martdagi №07-12/225-son ma’lumotnomasi). Natijada ko‘rsatuv va eshittiruv mazmun-mundarijasining ilmiy-ommabopligi ta’minlangan, hamda yangi ilmiy manbalar bilan boyitilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobasiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy anjumanda, jumladan, 2 ta xalqaro, 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma’ruza qilinib, muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e’lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan, 1 ta monografiya, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta maqola, jumladan, 5 tasi Respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda e’lon qilingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya kirish, uch asosiy bob, xulosa va foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxatidan tashkil topgan bo‘lib, umumiy hajmi 121 sahifadan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, uning O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarning ustuvor yo‘nalishlariga mosligi, muammoning o‘rganilganlik darajasi yoritilgan, dissertatsiyaning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari ko‘rsatib o‘tilgan, ishning maqsad va vazifalari, tadqiqot obyekti va predmeti bayon etilgan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **“Sergey Yesenin ijodida sharq adabiy an‘analarining aksi”** deb nomlanib, uch bo‘limni o‘z ichiga oladi. **“Sergey Yesenin she‘riyati xorijiy adabiy tanqid nigohida”** deb nomlangan birinchi bo‘limda Sergey Yesenin ijodining xorijiy tanqidchilar tomonidan o‘rganilishi, tadqiq etilishi haqida fikrlar bayon qilingan.

S.A.Yesenin ijodi uzoq yillardan beri chet ellik kitobxonlarning e‘tiborini tortib keladi. Shoirning she‘rlari dunyoning turli mamlakatlarida qayta-qayta nashr etilgan. Hatto shoir hayotligida ular Fransiya, Germaniya, Yaponiya, Italiya, Polsha matbuotida paydo bo‘lgan. O‘tgan asrning yigirmanchi yillari ikkinchi yarmi va 30-yillarda Bolgariya, Chexoslovakiya, Angliya, Vengriya, Yugoslaviya kitobxonlari S.A.Yesenin she‘riyati bilan tanishdilar. Keyingi yigirma yil ichida uning she‘rlari rumun, slovak, fin, shved, alban, ispan, serb-xorvat va dunyoning boshqa tillarida nashr etildi.

Chet elda eng ko‘p o‘qilgan rus shoirlari ro‘yxatida S.A.Yesenin yetakchi o‘rinda turadi. Shoir asarlari nashr etilishi bilan bir qatorda xorijda uning she‘riyatiga oid eslatmalar, adabiy-tanqidiy maqolalar ham paydo bo‘la boshladi. Fransiya, Vengriya, Italiya, Germaniya, Yaponiyada ular 20-yillarda paydo bo‘lgan. 30-yillarda S.Yesenin she‘riyatini chet elda o‘rganish ayniqsa qizg‘inlashdi. Shoir hayoti va ijodiga oid yangi monografiyalar, adabiy-tanqidiy maqolalar paydo bo‘ldi. S.A.Yesenin she‘riyati hozirda Germaniya, Polsha, Slovakiya, Italiya, Fransiya, Eron, Tojikiston, O‘zbekiston va boshqa mamlakatlar universitetlari kafedralarida o‘rganilmoqda.

1950-yilda Parijda S.A.Yesenin she‘rlar to‘plami Georgiy Ivanov tomonidan tahrirlangan va kirish maqolasi bilan rus tilida nashr etilgan. G.Ivanovning maqolasi o‘quvchida shoir va uning she‘riyati haqida to‘g‘ri tasavvur uyg‘otadi. G.Ivanov shoir o‘z she‘riyatida asosan aksilsho‘ro tuyg‘ularini ifodalaganligi haqida yozadi. Shoir va uning she‘riyati G.Ivanovni shu qadar maftun etganki, u o‘z hayratini quyidagicha ifodalaydi: “Yesenin ijodining bu jozibasini xolis baholash vaqti keldi. Yesenin ozod, jismonan va ruhan sog‘lom fikrlovchi odam. Bu originallikni men Yesenin taqdirining “dahosi” derdim”¹.

1959-yilda Parijda Sofi Lafittning “Sergey Yesenin” kitobi fransuz tilida nashr etiladi². Unga yozilgan so‘zboshida Sofi Lafittning fikrlash yo‘nalishi Georgiy Ivanovning fikrlaridan deyarli farq qilmaydi. Ammo agar Georgiy Ivanov Yesenin haqida u bilan bo‘lgan uchrashuvlariga tayanib yozgan bo‘lsa, Sofi Lafitt o‘z

¹Сергей Есенин. Стихотворения 1910-1925 гг., под ред. и со вступительной статьей Г. Иванова. Париж, 1950. - 11с.

²Sophie Lafitte. Serge Essenine (Une etude.Chroix de textes, bibliographie, portraits). Paris, - P. Seghers, 1959. – P.219 .

xulosalariga ilmiy dalillar keltiradi.

O'tgan asrning 30-yillarida Yugoslaviya matbuotida S.A.Yesenin haqida bir qancha asarlar chop etildi. Yugoslav shoiri va tanqidchisi Gustav Krklec bir necha bor S.A.Yesenin haqida maqolalar bilan chiqishlar qildi. Ularda Yesenin she'riyati bilan yaqindan tanishish maqsad qilingan. Ko'rinib turibdiki, muallif Yeseninni shoir sifatida chuqur hurmatlaydi va qadrlaydi. "Rossiyaning uch eng buyuk shoiri, - deb yozadi u, - bizning davrimizda fojiali tarzda vafot etdi. Blok ochlikdan vafot etdi, Yesenin o'zini osib qo'ydi, Mayakovskiy esa o'zini yuragidan otib o'ldirdi va, ehtimol, Rossiyada haqiqiy she'riy ilhom uchquni abadiy so'ndi... Hozir kim yoshlarni ilhomlantira oladi, chunki biz yoshlik davrida Blok, Yesenin va Mayakovskiylardan ilhomlanardik. Ular vafot etganidan keyin rus adabiyoti og'ir turg'unlik va hatto, aytish mumkinki, bo'shliqni boshidan kechirdi"¹. 1957- yilda Belgradda M.M.Peshichning S.A.Yeseninning tarjimai holi va ijodini uzoq muddatli o'rganish samarasi sifatidagi kitobi nashr etiladi. M.M.Peshich uzoq vaqtdan beri rus she'riyatiga qiziqib kelgani tufayli uning V.Bryusov va A.Pushkin haqidagi asarlari mavjud. 1931-yildan uning S.Yesenin haqidagi asarlari paydo bo'la boshladi. Ushbu kitobda olimning S.Yesenin haqidagi tadqiqot natijalari jamlangan.

Shoir ijodiga va uning she'riyatiga oid asarlar xorijda katta qiziqish borligidan Yan Yishaning "Chexoslovaskaya Rusistika" jurnalida e'lon qilingan maqolasi dalolat beradi². Unda sobiq ittifoqda nashr etilgan S. Yesenin haqidagi asarlarning tanqidiy taqrizi beriladi. O'tgan asrning 60-70-yillarida chet elda Yesenin she'riyatini o'rganish bo'yicha tadqiqotlar ko'paydi. Kanadada – K.Ponomarev, Angliyada – G. Makvey, Fransiyada – S.Lusiyani, Italiyada – M.Krizanats, Polshada – V. Piotrovskiy, Germaniyada – X.Aures tomonidan doktorlik va nomzodlik dissertatsiyalari tayyorlandi, uning she'rlar kitobi Junchenda yana bir bor nashr etildi. Yesenin she'riyatining yangi bosqichini o'rganishning ushbu samarali tendensiyalari X.Auresning "Sergei Yesenin. Bilder – und Symbolwelt" kitobida o'z ifodasini topdi. Kitobda Yesenin she'riyati A.Potebnya, L.Bulaxovskiy, A.Afanasev, P.Sakulin, V.Bryusov, K.Zelinskiy, N.Kravsov, V.Pertsov, Ye.Naumov, P.Vixodtsev, N. Xomchuk, A. Marchenko, I. Pravdina, V.Zemskov, shuningdek, ko'plab xorijiy tadqiqotchilarning qarashlari fonida tahlilga tortiladi.

Xullas, xorijiy adabiyotshunoslar ijodida shoir hayoti va ijodini xolis va chuqur o'rganish sari burilish yuz berdi. Ularda Yesenin she'riyati hozirgi adabiy hayotning keng fonida ko'rib chiqiladi, tadqiqotchilar obrazlar olami va Yesenin poetikasining ildizlari bilan qiziqishadi. Shoir haqidagi tadqiqotlar safiga yangi, ilgari noma'lum bo'lgan hujjatli materiallar tobora ko'proq kelib qo'shilmogda.

Bobning ikkinchi bo'limi "**Sharq adabiy an'alarining Yesenin ijodiga ta'siri**" deb nomlanib, unda sharq adabiyoti o'ziga xos jihatlarining Yesenin ijodiga ta'siri poetik tahlil qilingan.

Darhaqiqat, bu jarayon zamirida Sharq va G'arb, G'arb va Sharq milliy adabiyotlari va milliy badiiy tafakkurining o'zaro bog'liqligi, tipologik mushtarakligi, an'analar davomiyligi, badiiy tafakkurning umumiy qoliplarini shakllantirish, ijodiy jarayonlarning o'zaro bog'liqligi hal qiluvchi omil hisoblanadi. Jahon adabiyotidagi ana shunday o'zaro ta'sirning yaqqol misollaridan biri rus va

¹Gustav Krklec. In: «Lica va krajolica». Zagreb, 1954. - p. 96- 99.

²JanJisa. Dvoji Vyklad Sergeje Jesenina//«Cheskoslovenska rusistika», VII, 1962, № 1. - p. 57-63.

o‘zbek xalqlari o‘rtasidagi asrlar davomida davom etib kelayotgan tarixiy-madaniy munosabatlardir. Xuddi shu masalani Yesenin ijodida ham ko‘rish mumkin. Tadqiqotimiz mobaynida o‘tgan asrning eng yorqin va betakror rus shoiri – Sergey Yesenin ijodining o‘zbek she‘riyatiga ta‘sirini tizimli tahlil qilishga urinib ko‘ramiz.

Shoir fors tilidagi mumtoz she‘riyat namunalari bilan yaqindan tanishganidan keyin Eronga borishga qattiq intiladi. Biroq o‘sha paytdagi Rossiya va Eron munosabatlari rus shoirini u yoqqa yuborish maqsadga muvofiq emasligini taqozo etadi. Shunga qaramasdan, Sergey Yesenin qattiq turib Eronga borishni talab qilgani uchun uni Ozarbayjonning Bokuga yaqin qishloqlaridan biriga yuborishadi. Bir necha muddat bu yerda yashab, sharqona ruhni his etadi, Sharq odamlarining hayot tarzidan zavqlanadi va tez fursatda uning “Fors taronalari” she‘rlar turkumi yoziladi. Sharq she‘riyatida Allohga bo‘lgan haqiqiy ishq, yorga bo‘lgan majoziy ishq har ikkalasi o‘ziga xos tarzda kuylangan. Shunga taqlidan rus shoiri ham Sharq go‘zaliga bag‘ishlangan ishqiy she‘rlar bitadi. Lekin shu mavzu bahonasida G‘arb kishisining Sharqqa mehri jo‘sh urib turganini sezish qiyin emas.

Rus hayotini tasvirlaydimi, sharqona mavzularda qalam tebratadimi, bundan qat‘i nazar, Sergey Yesenin se‘rlarining tub mohiyatida umuminsoniylik yotadi. Millati, dini, irqidan qat‘i nazar, ularni o‘qigan kishining ko‘nglida bir yorug‘lik, zavq, mehr, ezgulikka oshnolik tuyg‘usi paydo bo‘ladi.

Sergey Yesenin 1920-1921-yillarda Toshkent, Samarqand va Buxoroda bo‘lgan, biroq u Eronga bora olmagan, chunki shoir 1925-yilda Eronga borish maqsadida yurgan paytlarida Bokuda Ozarbayjon rahbarlariga “shoir uchun illyuziya yaratish” topshirig‘i berilgan.

“Fors taronalari” she‘riy to‘plamini adabiyotshunoslar bir ovozdan Sergey Yesenin ijodining gultoji sifatida baholaydilar.

Masalan, rus shoiri ijodida Sharq adabiyoti va Qur‘on ruhi bilan sug‘orilgan quyidagi satrlarni uchratish mumkin:

Qur‘onda man etmish Muhammad
Lab urma deb hatto sharobga.
Shoir ichar shuning-chun ham may
Tashlar ekan o‘zni azobga¹.

Sergey Yeseninining sharq mamlakatlarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rish, jahon tamadduni beshigini tebratgan joylarga borish orzusi ro‘yobga chiqmadi. U Sharqni ehtiros bilan sevardi, sharqona she‘riyat iforidan sarmast yurardi. Biroq 1921- yilda Toshkentga qilgan safaridan so‘ng quyidagi satrlarni yozadi:

Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan,
Mast vasvasa qo‘zg‘amas tug‘yon.
Men dardimga Tehron gulidan
Choyxonada topoldim darmon.

Shoir choyxonada o‘zining “eski dardini” davolaydi, Eronga bora olmagan bo‘lsa-da, bu go‘zal sharqona shaharda, Sharq madaniyati ruhiga to‘yingan Ramazon bayramida chanqog‘ini qondiradi. O‘z davrida hech qaysi ijodkor Sharqni Yeseninchalik romantik va sehrli tarzda tasvirlamagan bo‘lsa kerak. Uning birgina “Fors taronalari” turkumi bilan tanish kitobxon bunga amin bo‘la oladi. Muallif tashbehlarni shunchalik ustalik bilan qo‘llyaydiki, bu “zangori va quvnoq mamlakat”

¹Есенин С. Форс тароналари. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007. – Б. 21.

shoirni “oy to‘la kechalari”, “kapalaklar to‘dasiga o‘xshash yulduzlar gujumi”, “dala bo‘ylab chopib borayotgan bolalari”, “Buxoroning oynavand zulmati” bilan maftun etadi. Eng muhimi, uning asarlarida sharqona ruh bor. Bunday motivlar, ushbu ruh o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan.

Biroq janubiy o‘lkalar Yesenin uchun oddiygina Sharq ekzotikasi emas, balki, birinchi navbatda, “Firdavsiyning moviy diyori”, Sa‘diy va Hayyom she‘rlari ardoqlanadigan yurtdir. Shu sabab bo‘lsa kerak, shoir o‘z dildoriga qarata shunday murojaat qiladi:

Kel, jonganam, qo‘shiq, ayt, Hayyom –
Kuylab o‘tgan qo‘shiqlardan ayt.

Ko‘pchilik tadqiqotlarda Yesenin Sharq she‘riyatidan, undagi sufiyona motivlardan o‘zgacha ta‘sirlangani haqida gapiriladi. Darhaqiqat, aksariyat poetik misralarida Yesenin olamning go‘zalligi va uyg‘unligidan hayratlanishning Sa‘diyga xos usullarini davom ettiradi, umrning qisqaligi, muhabbat zavqi, oniy lahzalar o‘tkinchiligi kabi hayyomona motivlarni qo‘llaydi va rivojlantiradi. Uning “Fors taronalari” turkumiga kirgan “Dog‘lar ketmish majruh ko‘ngildan”, “Bugun dedim sarrofga atay”, “Shahinam, o mening Shahinam”, “Deding: Sa‘diy doimo yorning”, “Men Bosforda bo‘lmaganman hech”, “Za‘far yurtga nur to‘kar oqshom”, “Havo toza, musaffo, zangor”, “Oy yuzida tillarang jilo”, “Xurosonda bir darvoza bor”, “Firdavsiyning moviy diyori” singari she‘rlari sof ishqiy lirikaning yuksak namunasi bo‘lish barobarida, sufiyona maslak va qarashlar ifodalangan shoh asarlar hisoblanadi.

Sharq mumtoz adabiyotida ishq-muhabbat masalasi shunchaki talqin etilmaydi, balki ilohiy tuyg‘u darajasiga ko‘tariladi. Ushbu yo‘nalishda ijod qilgan va muvafaqqiyatga erishgan shoirlar juda ko‘p. Fariduddin Attor, Ahmad Yassaviy, Jaloliddin Rumiy singari ulug‘ sufiy shoirlar talqinidagi, Yesenin o‘zicha idrok etgan ishq – odamni hayvonlikdan xalos etuvchi, odamzod naslini badbaxtlik, falokatlardan qutqaruvchi, barcha illatlarning davosi – uning odamligini ko‘rsatuvchi matlabdir.

Jon-joningga singsa muhabbat
Qalb ko‘ksingda oltin tosh bo‘lur.
Baxsh etolmay kuyga harorat
Tehron oyi ko‘kda fosh bo‘lur.(Fors taronalari, 22-b)

“Fors taronalari”dan olingan ushbu parchadan anglashiladiki, shoir Sharq falsafasini shunchaki o‘rganib qolmagan, balki uni o‘z she‘rlariga, aytish joiz bo‘lsa hayotiga ham singdira olgan.

Shunday qilib, shoir ijodiga ta‘sir qilgan sharqona adabiy tafakkur “Fors taronalari” turkumida mujassam bo‘ldi. Sharq madaniyati bilan yaqindan tanishish orqali u nafaqat insonparvarlik dunyoqarashining yangi qirralarini aks ettirdi, balki rus adabiyotida Sharqni tasvirlash an‘anasini rivojlantirdi.

Bobning uchinchi bo‘limi **“Yesenin she‘riyatidan o‘zbek tiliga ilk tarjimalar tarixi, ahamiyati va poetikasi”** deb nomlanadi. Bu bo‘limda Yesenin she‘rlarining o‘zbek tiliga qilingan tarjimalari, ularda shoir ruhiy olamining aksi haqida tahlil ma‘lumotlari berilgan.

Hassos rus shoiri Sergey Yesenin she‘rlari ilk marta O‘zbekistonga bundan bir asr avval kirib kelgan. Uning 1921-yili Toshkent va Samarqandga qilgan safari bir

qancha tafsilotlarni o'z ichiga olishi yeseninshunoslar tomonidan ko'p marta e'tirof etilgan.

O'zbekistonlik she'riyat ixlosmandlari o'tgan asrning 60-yillari boshidayoq Yesenin she'rlarini o'z ona tilida ilk bor kitob holida o'qiy boshladilar. Bu o'sha davr adabiyoti uchun katta hodisa edi. Xususan, 1965-yilda shoirning o'zbek tilidagi Erkin Vohidov tarjimasidagi she'rlari mukammal to'plam ko'rinishida 10000 tirajda nashr etiladi. Ushbu nashrda shoirning o'ndan ortiq she'rlari, "Fors taronalari turkumi", "Yigirma oltilar balladasi", "Ulug' jang qissasi" hamda "Anna Snegina" dostoni o'rin olgan. Xususan, Yesenin ijodining ko'zgusi hisoblanmish "Bu dunyoda men bir yo'lovchi", "Ona ibodati", "It haqida doston", "Ayolga maktub", "Xayr endi, xayr do'stginam", "Tongda meni uyg'ot ertaroq", "Go'daklikdan ma'lum har odam" kabi she'rlari ilk bor ushbu to'plamda jaranglaydi.

Ushbu tarjimalar, xususan, "Go'daklikdan ma'lum har odam" deb boshlanuvchi she'r tarjimasida mutarjim bilan suhbatini shoir Usmon Azim shunday eslaydi: "Shu she'rlar juda qiziq,- deydi Erkin aka, nega, desam, "deyarli kitobga qaramay tarjima qilganman",- deb javob berdilar". Tan olish joizki, tarjima haqiqatda nafis chiqqan:

Все живое особой метой
Отмечается с ранних пор
Если не был бы я поэтом
То, наверное, был мошенник и вор...

Tarjimada esa
Go'daklikdan ma'lum har odam,
Bola boshdan degan gap to'g'ri.
Mobodo men shoir bo'lmasam,
Bo'lar edim bezori, o'g'ri.

Yesenin tarjimalarining yuqoridagi singari originaldagiday jaranglashiga nimalar sabab bo'lganini Erkin Vohidovning beozor iqrorigan anglash mumkin: "Yeseninga xuddi o'z o'rtog'imdek, goho ko'chada sho'xlik qilib yuruvchi o'spirindek... qattiq bog'lanib qoldim. Ana shu mehr tufayli tarjimaga o'tirdim. Uni tarjima qilishga meni hech kim undagani yo'q edi"¹.

"Fors taronalari" tuplamining go'zal she'rlaridan biri shunday satrlar bilan boshlanadi:

Xurosonda bir darvoza bor,
Ostonasi gulga ko'milgan.
Unda yashar bir pariruxsor,
Xurosonda bir darvoza bor,
Hayhot, uni ocholmadim man.

"O'zbek adabiyotida bu darvoza ochilganiga salkam oltmish yil bo'layapti. Yuqorida sanab o'tilgan she'rlarga nazar solar ekanmiz, Yesenin she'rlari o'zbek tilida o'z tarjimonini topganiga ishonch hosil qilamiz. Keyinchalik, Erkin Vohidov tarjimalari asosida 1971-yilda "Zamin darg'asi" deb nomlangan she'r va dostonlardan iborat 184 sahifali to'plam G'ofur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyotida 35000 nusxada chop etiladi. Ushbu to'plamda "Zamin darg'asi", "Singlinga xat", "Hayot yo'lim", "Xotira" singari she'rlar hamda "Yigirma oltilar balladasi" ilk bor o'zbek tilida yangradi. "Zamin darg'asi" – muqovasi yarim qayinzor, yarim zangor osmonni eslatuvchi kaftdekkina kitob... Ustoz Erkin Vohidov bu tarjimalarga tom ma'noda butun iste'dodi yoshligiyu mehr-muhabbatini, bor mahorati bilan haroratini sarflagani har bir she'rdan ufurib turadi.

¹Вохидов Э. Шоиру шеър ушуур.- Тошкент:"Ёш гвардия" нашриёти, 1987. – Б.50.

Bizningcha, Yesenin she'rlari dastlabki tarjimalaridanoq o'zbek tilida bor bo'yi-basti, go'zalligi-yu, samimiyligi bilan sof badiiyat sifatida namoyon bo'lgan. Bunda hassos shoir va mohir tarjimon Erkin Vohidov mahoratining o'rni beqiyosdir.

Tadqiqotning ikkinchi bobi "**O'zbek adabiy-badiiy tafakkuri va Yesenin she'riyati**" deb nomlanadi. Ikkinchi bob uch bo'limdan iborat. Bobning birinchi bo'limi "**Fors taronalari**"da shaxs talqini va ruhiyatining o'ziga xos ifodasi" deb nomlangan bo'limda shoirning "Fors taronalari" asarining badiiyati, lirik kechinma va lirik qaxramon masalalari tahlil qilingan. Asardagi lirik qahramon bir qarashda sodda, samimiy inson, yana bir o'rinda esa murakkab davr kishisidir. Ammo, shoir insonni oddiylikdan buyuklikka olib chiqish ilinjida. Yesenin murakkab hayot chizgilarini go'yo soddadil bolakay nigohi ostida tasvirlaydi, biroq uning aksar she'rlari kishini kattalarga xos mulohazakorlikka chorlaydi. "Abadiy bolakay va buyuk donishmand" shoir – Sergey Yesenin bashariyatni shunday talqin qiladi:

Biz barchamiz go'dakmiz bir oz,
Goh ko'zda yosh, goh labda kulgu,
Bo'lmish ushbu dunyoda meros
Barchamizga shodlik va qayg'u.
Talpinma ko'p, devona ko'ngil. ("Fors taronalari", 23-b).

"Yesenin – dunyoning eng buyuk shoirlaridan biri, u dunyoning eng halol shoirlaridan biri. U o'z vatanini yaxshi ko'rardi. Yesenin hamisha hayotni sevadigan, go'zallik va halollikni sevadigan dunyo xalqlari bilan birga bo'ldi" va she'rlarida ham go'zallikka oshufta inson obrazini o'ziga xos tarzda yoritdi:

Oh, u oq qayinlar,
Oppoq qayinlar...
Qizlardek sarvinoz, suluv, xushqomat.
Sevmasligi mumkin ularni faqat –
Quvnoq navniholda ko'rmagan samar. ("Fors taronalari", 31-b).

Ushbu parchada sokin ruhiy kayfiyatni sezish qiyin emas. Ammo uning she'rlarida shunday o'rinlar ham uchraydiki, shiddatkor, go'yo oldidan chiqadigan har qanday narsani yamlamay yutishga qodir kayfiyat singdirilgan:

Onajonim,
Kelar bizga ham fursat,
Keladir intizor
Kutganimiz dam.
Biz axir turibmiz
Jangga bo'lib taxt,
Kim zambarak tutib,
Kim tutib qalam. ("Fors taronalari", 13-b).

"U yuragi his qilgan hamma narsani: quvonchni ham, alamni ham yozdi" deydi Aziz Nesin. U she'rlarini ifodalashda esa tabiat tasviridan g'oyatda go'zal tarzda foydalandi. Qishloqda tug'ilib o'sgan, ayni damda tabiat oshnosi bo'lgan shoir she'rlarida qalb tug'yonlari, inson ruhining nozik tovlanishlari tabiat go'zalliklariga omuxtalashgan holda tasvirlanadi:

Tong otadi beozor va jim,
Tuman ichra bo'zarar osmon.
Bugun yana seni esladim,

Mehribonim, munis onajon! (“Fors taronalari”, 32-b).

Shoirning butun borliqqa oqlik berishi bu motam ramzi, xo‘sh tabiat nima sabab motam tutmoqda, nega oq qayinlar yig‘lamoqda? Sababi, ularning sevimli shoiri ehtimol “o‘lgan”. Oddiy ko‘z bilan qarganda she‘rda yuqorida ta’kidlaganimizdek, sokinlik kayfiyati ko‘rinadi, ammo she‘rning har bir satri qalbingizni junbishga soladi. Chunki o‘lgan kimsa faqatgina shoir emas, balki butun insoniyat mana shunday ayanchli ahvolda, shundan oq qayinlar motam tutmoqda, yig‘lamoqda. Sergey Yesenin “Fors taronalari”dagi she‘rlarida inson va uning qadr-qimmatini ulug‘laydi, ayni damda, uning kamchilik va qusurlarini ayovsiz tanqid qiladi:

O‘zgalarning ovozi bilan
To‘tiqush ham biyrondir, ammo,
Kuyla faqat o‘z sozing bilan,
Qurbaqadek bo‘lsa ham hatto. (“Fors taronalari”, 25-b).

Ushbu parcha orqali shoir insonni o‘z holicha, borligicha qabul qilishga chorlaydi. O‘zgalarning “ovozi” bilan kuylovchi to‘tiqushlarni esa tanqid qiladi. Bunday dunyoqarash Sergey Yesenin nafaqat shoirlar, balki butun insoniyatga daxldor xulosasi bo‘lib, shoir yuqoridagi misralarda insonning ma’naviy qiyofasini sharqona ohang, qiyoslar bilan yoritadi.

“Fors taronalari” (1924-1925) she‘rlar turkumi o‘ziga xos poetik tili bilan ajralib turadi. Bir tomondan, unda Sharq she‘riyatining ta’siri aniq-tiniq sezilib turadi. Ikkinchi tomondan, hayotining so‘nggi yillarida yozilgani uchun bo‘lsa kerak, unda shoirning poetik mahorati bor bo‘yicha qad rostlagani ko‘rinib turadi.

Xullas, darhaqiqat, “Fors taronalari” Sharq she‘riyati “gavharlari”ning eng sara topilmalari bilan yo‘g‘rilgan, muallif individual uslubini yarqiratib yuborgan asar sifatida bo‘y ko‘rsatdi. F.V.Lixoletov fikricha, “Fors taronalari” – “Turkiston osmoni va zamini”dan ta’sirlanish mahsulidir¹.

Bobning ikkinchi bo‘limi **“Shoir ijodi o‘zbek davriy matbuoti va adabiyotshunosligi talqinida”** deb nomlanadi. O‘zbekistonda Yesenin shaxsiyatiga, uning ijodiy tarjimai holiga o‘ta hurmat bilan yondashiladi. Respublikamizda buyuk rus shoiriga bag‘ishlangan ko‘plab tadbirlar o‘tkazib kelinadi.

O‘zbek yeseninshunosligining kelib chiqishi XX asrning birinchi choragiga to‘g‘ri keladi. Sergey Yesenin nomi ilk bor Turkiston matbuotida 1918-yilda uchraydi. 1918- yil 16- yanvarda Toshkentdagi “Ozod Turkiston” gazetasida shoir Aleksandr Shiryayevetsning “Uch alp (xalq shoirlari haqida)” maqolasi bosilib, unda N.A.Klyuyev, S.A.Klichkov va S.A.Yesenin ijodi haqida qisqacha ma’lumot berilgan. Shiryayevets yosh Sergey Yesenin haqida hayajon bilan “butun borlig‘i bilan rus, mardonavor va jasur Yesenin. U, hali yosh bo‘lishiga qaramay, bu yil o‘zining “Радуница”si bilan ko‘zga ko‘rinib qoldi. Ammo uning kuchli ovozi bor, quyma satrlarida qanday jarangdorlik bor”. 1918-yil 17-fevralda “Ozod Turkiston” gazetasida A.Shiryayevets Yeseninga bag‘ishlab “To‘y” hikoyasini e’lon qiladi. Yeseninshunoslikka qarshi boshlangan kompaniyani o‘sha davrdagi rasmiy hokimiyat shoirning ijodiy tarjimai holi yomonligi bilan izohladi va natijada uzoq

¹Тартаковский П. И. Свет вечерний шафранного края. (Средняя Азия в жизни и творчестве Есенина): 1986. - С.79.

yillar davomida Yesenin nomi va she'riyati haqida matbuotda lom-mim deyilmadi.

1965-yilda O'zbekistonda Sergey Yesenin tavalludining 70-yilligi shoir iste'dodining muxlislari tomonidan keng nishonlandi. O'zbekiston xalq shoiri G'afur G'ulom "Pravda" gazetasi sahifalarida, so'ngra "Sharq yulduzi" jurnalida Yesenin she'riyatiga yuksak baho berib, "Haqiqiy rus shoiri Sergey Yesenin biz, o'zbeklar uchun ham qadr don bo'lib qoldi. Agar Yesenin Sharqqa talpingan bo'lsa, endi Sharq shoirlari uning she'riyatiga maftun, ushbu poeziyadan o'zlariga yaqin va kerakli jihatlarni ajratib olmoqda", deydi.

"Pravda Vostoka" gazetasida (1965- yil 3- oktyabr) Yesenin haqidagi maxsus materiallar to'plami nafaqat keng jamoatchilik e'tiborini o'ziga tortdi, balki Sergey Yesenin she'riy tarjimai holiga jalb qildi, keyingi tadqiqotlar uchun tayanch nuqta bo'ldi. "Shoirning hayoti va ijodiy yo'li mashaqqatli kechdi, - deb yozadi adabiyotshunos A.Akbarov "Shoir qalbi xazinalari" maqolasida. - Ammo, taqdiri qanchalik ziddiyatli bo'lmasin, shoir butun umri davomida o'z Vataniga, uning xalqiga so'nmas, olovli mehr-muhabbatni o'zida mujassam etgan, o'z yurtining baxtli kelajagiga qalbi bilan ishongan. Bu olovli, ehtirosli muhabbat Yesenin she'riyatini bizning mehribon va abadiy hamrohimizga aylantirdi.

O'sha gazetada e'lon qilingan "Yesenin Toshkentda" nomli esesida jurnalist G.Dimov shoirning Turkistonda bo'lgani haqida qiziqarli ma'lumotlar beribgina qolmay, Toshkentda urushdan keyingi yillarda uning qizi, jurnalist va yozuvchi, Tatyana Sergeevna Yesenina yashab, ijod qilganini keng jamoatchilikni xabardor qildi. 1965- yildan keyin O'zbekistonda S. Yesenin hayoti va faoliyatiga oid turli materiallar muntazam nashr etila boshlandi. 2005-yilga kelib, ilmiy, ilmiy-ommabop, tarjima va axborot nashrlari soni 400 dan ortdi.

Ilmiy yeseninshunoslik O'zbekistonda V.Korjan, Ye.Malinovskiy, P.Tartakovskiy, I.Temkina va boshqalarning sa'y-harakatlari bilan boshlandi. Farg'onalik adabiyotshunos V.Korjan ko'p yillar davomida Yesenin she'riyati va rus xalq ijodiyoti o'rtasidagi turli bog'liqliklarni tadqiq qildi. Adabiyotshunos "Russkaya literatura" jurnalidagi (1965, №2.) "Yesenin folklorizmini o'rganish masalasi" nomli maqolasida "Yesenin va xalq ijodiyoti" muammosi haligacha o'zining chuqur va har tomonlama yechimini topgani yo'q, degan xulosaga keladi. V.Korjan umrining oxirigacha Farg'ona davlat universitetida S.Yesenin ijodi bo'yicha maxsus kurslar o'qidi, shoir haqida viloyat va respublika gazetalarda maqolalar chop etdi.

2005-yil 23-dekabrda Toshkentda "S.A.Yesenin va hozirgi zamon" mavzusida ilmiy-amaliy konferensiya bo'lib o'tdi. Toshkent, Samarqand, Farg'ona, Xorazmlik olimlar, respublika oliy o'quv yurtlari o'qituvchilari ishtirok etgan konferensiyada A.Davshan, G.Rahmatullayeva, V.Kurnitskaya, E.Kaminskaya, A.Kuchinskiy va boshqalarning Yesenin she'riy merosini zamonaviy tahlil qilishning ayrim masalalariga bag'ishlangan ma'ruzalari tinglandi.

Ana shunday maqolalardan biri "O'zbek tili va adabiyoti" jurnalining 1987 -yil birinchi sonida "Yesenin she'riyatida sharqona motivlar" nomi ostida e'lon qilinadi. Muallif Bozorboy Ilyosov ushbu maqolani davr, siyosiy muhit ta'siridan kelib chiqib tayyorlagani sezilib tursada, shoirning sharqqa bo'lgan qiziqishi, she'rlarida sharqona ohanglarning jarangi "Fors taronalari" turkumining yaratilishi haqida batafsil ma'lumot beradi. Yesenin ijodiy olamiga ana shunday safarlardan yana

birini shoir Sirojiddin Sayyid tomonidan, yuqorida eslab o'tganimiz "Jahon adabiyoti" jurnalining 2012-yil 10-sonida ko'rishimiz mumkin. "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan, yoxud Xurosonda bir darvoza bor" nomli maqolasida muallif Yesenin she'riyatining o'zbekona ohangini ifodalashga harakat qiladi. Bundan tashqari, yosh avlodni Yesenin ijodi bilan tanishtirish maqsadida maktab darsligiga uning she'rlari ham kiritilgan bo'lib, "Xurosonda bir darvoza bor", "Dog'lar ketmish majruh ko'ngildan", "It haqida doston" kabi qator she'rlari o'quvchilar dilidan munosib joy olgan.

Darhaqiqat, she'r deb atalmish yuksak pog'onaga har qanday qofiya va vazndan iborat asar ko'tarila olmaydi, buning uchun shoirdan nozik did, o'tkir sezuvchanlik, yaratuvchanlik, benazir izlanish, estetik soflik, keng duyoqarash hamda tug'ma iste'dod talab etiladi. Ilhom chashmasidan suv ichib yaratilgan she'rlar boqiylikka mansub ekan, Yesenin she'riyatining ham millat, til, zamon, makon tanlamasligi, shoir poetik tafakkurining yuksakligini, shaxsiyatining ulug'ligini ko'rsatib turadi.

"Yesenin badiiy olami unsurlarining o'zbek she'riyatidagi aksi" deb nomlangan uchinchi bo'limda shoir she'rlarining o'zbek ijodkorlariga ilhom berganligini, shoir she'rlari ta'sirida yaratilgan she'rlar tahlil qilinadi.

Rus-o'zbek adabiy aloqalari tarixini o'rganish XIX asr oxirida boshlangan bo'lib, XX asr boshlarida rus sharqshunosligida izchil davom ettirildi. Ma'lumki, A.S.Pushkin, L.N.Tolstoy, F.M.Dostoyevskiy, A.Blok, I. Bunin, S.Yesenin, V. Mayakovskiy, Ye.Yevtushenko, R. Rojdestvenskiy kabi taniqli rus shoir va yozuvchilari ijodi o'zbek she'riyati va nasriga katta ta'sir ko'rsatdi. Ammo buning aksil ta'siri ham borki, buning tasdig'ini Asqad Muxtorning quyidagi fikrlari ham isbotlaydi: "Biz Sharq adabiyotining G'arbga, ayniqsa, mumtoz she'riyatga ta'siri haqida qandaydir tor, parokanda bir tarzda fikr yuritamiz. To'g'ri, ko'p nomlar, asarlar, qiyoslashlar ("Layli va Majnun" – "Romeo va Julietta") bizga ma'lum: Gyugoning "Sharq taronalari", Hyotening "Sharq devoni", Bayronning sharqona dostonlari, Adam Mitskevichning "Qrim sonetlari", Pushkinning "Qur'ondan iqtibos", "Bog'chasaroy favvorasi" asarlari, Sergey Yeseninning "Fors taronalari" turkumi, Mixail Lermontovning "Kavkaz dostonlar"i; Hofiz, Sa'diy, Firdavsiy, Jomiy, Navoiy va boshqa ulug' zotlarga ko'plab bag'ishlovlar, taqlidlar... Sanab bitirmaysiz. Lekin, ta'sir nega bu qadar bepoyon? Sharq dahosining sehri nimada ekanini anglash uchun ushbu hodisani keng miqyosda, adabiy oqim va usullarning harakat jarayonida tadqiq etish kerak". Sharq adabiyotidan ulgu olgan, hayoti va ijodida doimo Sharqqa yuzlangan Sergey Yesenin she'riyati ko'plab o'zbek shoirlari ijodiga o'z ta'sirini o'tkazdi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Tilak Jo'ra, Muhammad Yusuf, Xurshid Davron, Usmon Azim singari o'zbek shoirlari Yesenin she'rlarini tarjima qilish bilan birga, o'zlari ham uning mavzu va motivlari sarhadini kengaytirdilar.

Haqiqiy she'r shoir qanday bo'lishi kerakligini bir qadar anglatdi. Adabiyotda eng zarur va eng muhim ta'sir, avvalo, shudir – deb yozadi Bahodir Rahmon¹. Ko'plab ijodkorlarimiz uchun esa Yesenin o'ziga xos maktab va ustozlik vazifasini bajargani ham sir emas. Yesenin badiiy olami bo'lmish Konstantinova o'zbek qishloqlari qiyofasida, farzandini intizorlik bilan kutgan rus ayoli o'zbek mushtipar

¹Шу манба, Б.- 58.

onasi timsolida, unib o‘sgan yeriga muhabbati cheksiz akaning singlisiga izhori qiyofasida o‘zbek adabiyotida ham jaranglay boshladi. Yurtning taqdiri uchun qalamini qurol qilib olgan shoir:

Gar o‘shqirib desa avliyo:
“Rusni tashla, yasha jannatda”
Deyman: “Jannat kerakmas,
Ammo Vatanimni bering albatta”.

Shoirning ushbu nidosi Rauf Parfi ijodida ham otashin chorlov uyg‘otgan bo‘lsa ajab emas:

Daryo kabi doimo uyg‘oq
Intilishim tog‘ qadar baland.
Olis yo‘lga otlandim, biroq
Senga bo‘lgan sadoqat bilan,
Ey, ko‘nglimga yo‘g‘rilgan Vatan¹.

Rauf Parfining “Baxt va tashvish” nomli she‘ri onasi Sakina Isabekka bag‘ishlangani bilan ham Yesenin “Onamga maktub” she‘ri bilan mushtaraklik kasb etadi. Yesenin onasi tilidan aytilgan oddiy haqiqat, aslida murakkab hayotning inkor qilib bo‘lmaydigan haqiqatidir.

Onalar qalbidagi dardlar o‘xshash bo‘ladi. Yesenin onasi ham o‘g‘lining she‘r yozishidan qo‘rqib yashaydi. O‘g‘lining boshida nogahoniy kaltaklar sinmasin deydi. Qolaversa, o‘g‘lining yoniga qaytishini, dehqonchilik bilan shug‘ulanishini istaydi. M.Yusufning onasi o‘g‘lining “podsholar haqida she‘r yozishi”dan xursand emas. Soddadil ona bag‘ridan bino qilgan farzandiga aziyat yetishidan xavotirda. Muhammad Yusuf ham “Parijning eng go‘zal restoranlari“ ni oddiy qishloq tandiriga, Rimni bedapoyaga alishmoqchi emas.

Muhammad Yusufning “Onamga xat” she‘ri Sergey Yesenin onasiga yo‘llagan maktubining mantiqiy davomidek tuyuladi:

Men sizni o‘ylayman shomu saharda,
Ona, sog‘insam ham bora olmayman,
Tunlari charog‘on shunday shaharda,
Hech kimga ko‘nglimni yora olmayman².

Maslak, sog‘inch, o‘y-istaklar mushtarakligi, sog‘inch o‘rtayotgan o‘g‘ilning mehribon ona oldidagi qarzdorlik hissi barcha unsurlari bilan she‘rdan-she‘rga to‘liq ko‘chib yurgandek taassurot uyg‘otadi:

Aziz onaginam,
Bo‘lgin salomat.
Mehru shafqatingni
Sezib turibman.
Sen zarra tasavvur
Qilmassan faqat,
Nima deb dunyoda
Yashab yuribman³.

“Sergey Yesenin jo‘n bir odam emas, tabiat atayin she‘riyat uchun, “dalalar

¹Парфи Р. Ўзгурк. Тавба. Шеърлар. – Тошкент: «Ёзувчи», 2000. – Б.10.

²Юсуф М. Сайланма: Шеърлар. Достонлар. Хотиралар. – Тошкент: «Шарк», 2007. -Б. 71.

³Есенин С. Форс тароналари. Шеърлар. Эркин Вохидов таржимаси.–Тошкент:«Янги аср авлоди», 2007.-Б. 12.

g‘amini” ifodalash, yer yuzidagi jamiki tirik jonni sevish va boshqa xilqatlardan ko‘ra odamga ko‘proq xos bo‘lgan shafqat tuyg‘usi uchun yaratgan xilqatga o‘xshar edi” – deb yozadi M.Gorkiy. Bu haqda shoirning o‘zi esa shunday deydi:

Men axir
Shu qishloq grajdaniman,
Ha, u mashhur bo‘lsa ajabmas bir kun
Allaqanday ayol bunda bir zamon
Janjalkash shoirni tuqqani uchun,

Oka daryosi qirg‘oqlari, o‘tloqlari, o‘rmonlar... uning murg‘ak qalbiga kichik bir Vatan tuyg‘usini olib kirdi. Bu tuyg‘u bora-bora ulkan Rus zaminiga, Vataniga cheksiz mehr-muhabbatli shoirni shakllantirdi¹. Uning she‘rlarida bo‘y cho‘zgan qichitqon, chuchmoma, nafaronu oq qayindan tortib, oluchazor bog‘gacha barchasida ulug‘ Rus diyorining shoir qalbidagi in‘ikosini tashkil etadi:

Oh, u oq qayinlar,
Oppoq qayinlar...
Qizlardek sarvinoz, suluv, xushqomat.
Sevmasligi mumkin ularni faqat –
Quvnoq navniholda ko‘rmagan samar.

Yoki:

Rossiya!..
Ey signasi oppoq qayinlar!

Bevosita oqqayin Vatan tabiatining poetik timsoli – qayinzorga aylangan. Yuqoridagi tavsiflarga diqqat qilar ekanmiz, ko‘z oldimizdan ustoz Oybekning “Mayin chayqaladi bir tup na‘matak”, Hamid Olimjonning “Derazamning oldida bir tup o‘rik oppoq bo‘lib gulladi” kabi she‘rlaridagi tasvirlar o‘tadi, tanish misralar yodimizga beixtiyor quyilaveradi. Ko‘rinadiki, Yesenin badiiy kashfi bo‘lmish daraxtni badiiy obraz darajasiga olib chiqishi o‘zbek nazmida ham bo‘y ko‘rsatdi. Oybek o‘z na‘matagiga, Hamid Olimjon bir tup o‘rikka Yesenin singari poetik ma‘no yuklaganki, u vatanga bo‘lgan mehrga chambarchas tutash hisoblanadi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Yesenin badiiy olami nihoyatda boy va salmoqdor. Uning adabiy ta‘sirini Erkin Vohidov, Muhammad Yusuf, Tilak Jo‘ra, Usmon Azim, Xurshid Davron singari yana ko‘plab shoirlarimiz ijodida kuzatishimiz mumkin. Ahamiyatlisi, o‘zbek kitobxonlari, ijodkorlari uchun Yesenin o‘sha-o‘sha – samimiy va isyonkor. Bu shoirning badiiy didi yuksakligidan, poetik olamining ufqi bepoyonligidan dalolatdir.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbek shoirlari ijodida Yesenin she‘riyatiga xos motivlar”** deb nomlanadi. Bu bob ham uch bo‘limdan tashkil topgan. Bobning birinchi bo‘limi **“Erkin Vohidov ijodida Yesenin she‘riyatiga xos ohanglar”** deb nomlanadi. Bu bo‘limda Yesenin va Erkin Vohidov ijodining mushtarak jihatlari tahlil qilinadi.

Xususan, ijodkor otashin qalb sohibi bo‘lsa, tarjimonning u bilan “til topmog‘i” yanada mushkullashadi. Quvonarlisi, o‘zbek she‘riyatining zabardast vakillaridan biri E.Vohidov rusning “dalli-devona” shoiri S.Yesenin bilan, uning isyonkor ijodi bilan tenglasha oldi. Bu har ikkala ijodkor ruhiy kechinmalarining vobastaligidan

¹Raхмонов Б. Муқаддасдир шоир деган ном. Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008.-Б. 10.

dalolatdir. Zero, ona yurtga bo‘lgan sog‘inch va muhabbat, o‘zga yurtning “dilrabo” vakilasi ikkala shoirga ham birdek qiyofada namoyon bo‘ladi. Yeseninga xos vatanga muhabbat tuyg‘usi, ishqdan sarmast bo‘lgan oshiq hayrati bevosita E.Vohidov she‘riyatida ham namoyon bo‘la boshladi, go‘yo Yesenin yosh shoir qalbiga shivirlagandek:

Oy fonusin ko‘tardi osmon,
Yulduzchalar bo‘ldi parvona.
Sayr etaylik, kel, birga, jonon,
Ko‘nglim seni istar yagona.
Qo‘llarimdan tut o‘zing, dilbar,
Oydin yo‘lga yetakla meni¹.

Sergey Yesenin she‘riyati mavzular olami nihoyatda rang-barang. Bu mavzular orasida Vatan va muhabbat mavzusidagi she‘lari alohida o‘rin tutadi. Shoir she‘riyati mavzulari haqida bahs yuritar ekan, adabiyotshunos B. Rahmonov shunday yozadi: “Yesenindagi vataniga bo‘lgan cheksiz mehrni rus xalqiga bo‘lgan yuksak muhabbatsiz tasavvur etib bo‘lmaydi. Bular chambarchas bog‘lanib ketgandir”². Ikkala shoir ham butun olamga mana shunday muhabbat ko‘zi ila qaraydi, sokin oqshom, oy nurining ma‘yus shu‘lasi oshiq qalbini junbishga keltiradi, unga ilhom baxsh etadi:

Za‘far yurtga nur to‘kar oqshom,
Bog‘da gullar javlon urgan payt,
Kel, jonganam, qo‘shiq, ayt, Xayyom —
Kuylab o‘tgan qo‘shiqlardan ayt
Bog‘da gullar javlon urgan payt³.

E.Vohidovning ushbu she‘ri to‘plamning birinchi jildiga kiritilgan bo‘lib, shoir o‘zi ta‘kidlaganidek yoshlik davrlarida, aniqrog‘i, 1961- yilda yozilgan. E‘tibor beradigan bo‘lsak, bu vaqt shoir Yesenin tarjimalariga qo‘l urayotgan davrga to‘g‘ri keladi. Yeseninning “Fors taronalari” to‘plamida yuqoridagi singari “dilrabo” yorga murojat o‘rinlari ko‘p uchraydi, ba‘zan shoir uni bevafoqlikda ayblaydi, ishq izhor etadi, yana bir o‘rinda esa dildoriga murojat qilib, ona diyorini, unga bo‘lgan muhabbatini tasvirlaydi:

Shahinam, o mening Shahinam,
Bilsang, shimol Vatandir menga.
Dalalardan so‘ylaymi senga.
Oy nur sepgan boshhoqlardan ham.
Shahinam, o mening Shahinam. (“Fors taronalari”, 15-b)

Shoir tug‘ilgan bepoyon Rusning kichik bir go‘shasi uni bolaligidanoq go‘zallikka oshno etadi. Uning beg‘ubor davri o‘tgan va bir umr yuragi tortib turgan, ilhom bergan, yetuk she‘rlar yaratilishining guvohi bo‘lgan zamin edi. Oka daryosi qirg‘oqlari, o‘tloqlar, o‘rmonlar... uning murg‘ak qalbiga kichik bir Vatan

¹Воҳидов Э. Сайланма. Биринчи жилд. Ишқ савдоси. – Тошкент, 2000. – Б. 22. (кейинги мисоллар шу китобдан олинди).

²Раҳмонов Б.Вафо қисмати. – Тошкент: Муҳаррир, 2011. – Б. 28.

³Есенин С. Форс тароналари. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007. – Б. 17. (кейинги мисоллар шу китобдан олинди).

tuygʻusini olib kirdi. Bu tuygʻu bora-bora Rus zaminiga, Vataniga cheksiz mehr-muhabbatli shoirni shakllantirdi¹.

Bu boradagi fikrlarimizni bir joyga jamlaydigan boʻlsak, S.Yesenin ulgʻaygan davr hamda E.Vohidovni tarbiyalagan dunyo mutlaqo mushtarak emas, adabiyot esa shunday shula ekanki, har ikki olamda ham bir xil ziyo taratib turadi, uning nuri badiiyat mezonlari aro nafaqat oʻz davrida, balki asrlar osha ham birdek porlayveradi.

Bobning ikkinchi boʻlimi **“Sergey Yesenin isyonkor lirikasi va Usmon Azim sheʻriyati”** deb nomlanadi. Bu boʻlimda Sergey Yesenin lirikasi va Usmon Azim ijodining hamohangligi talqin qilinadi.

Yesenin asarlarida qad koʻtargan olam koʻplab motivlardan iborat:sevgi, tabiat, baxt, dard va, albatta, Vatan. Shoir lirikasi yuksak axloqiy tuygʻular, samimiy hissiyotlar asosiga qurilgan.

Sergey Yesenin ijodi koʻp yillar davomida butun dunyo shoirlarini ijodga undagan va ilhomlantirishda davom etmoqda. Ayniqsa, Yesenin sheʻriyatining motivlari zamonaviy shoirlar ijodida yaqqol seziladi. Buni zamonaviy oʻzbek shoirlarining sardori Usmon Azim ijodi misolida ham koʻrishimiz mumkin.

U.Azimning “Yurak” toʻplamidan oʻrin olgan quyidagi sheʻr yuqoridagi fikrni tasdiqlaydi:

Umrida
Bir marta ham
Oʻlmagan odam,
Sen bilan
Nima haqida
Suhbatlashay?²

Shoir – oʻz olami ichra yolgʻiz. Uning faqat oʻzini qiynayotgan muammolar bilan tillashishi kitobxonni fikrlashga undamaydi, shoir lirik qahramoni, aksincha, olam va odam oʻrtasidagi murosasiz kurashni tushunguvchi koʻngilning yoʻqligidan aziyat chekadi. “Umrida bir marta oʻlmagan odam” bilan qay tariqa murosayu madora qilish mumkinligi uning qalbiga bir dam tinchlik bermaydi.

Shoir ijodini rus tabiatisiz tasavvur qilish mumkin emas, tabiat shoir uchun hamma narsaning oʻlchoviga aylandi: sevgi, hayot, ishonch, iroda, har qanday kechinma tabiat prizmasidan oʻtadi va u mavjud borliq qonunlarini anglash, u haqida mulohaza yuritish vositasi boʻlib xizmat qiladi:

Baxtlimanki, sevdim, intildim,
Quloch yozdim chechaklar aro.
Jonvorlarni ukam deb bildim,
Boshlariga urmadim aslo³.

Shoir ijodining har sahifasi xalq hayoti bilan bogʻlangan boʻlib, shoir shaxsida oʻzi tugʻilib oʻsgan kichik bir qishloq ruhidan boshlab to bepoyon va u yerda yashayotgan xalqning ruhi singib ketganligi bois, butun bir davr ruhini boricha ifoda

¹Баходир Раҳмонов. Мукаддасдир шоир деган ном. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2008. – Б. 10.

²Азимов У. Юрак. –Т.; “Ғ.Фулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти”, 2010. –Б. 123.

³Сергей Есенин. Форс тароналари.Шеърлар. Эркин Воҳидов таржимаси. – Тошкент:“Янги аср авлоди”, 2007. – Б. 6.

eta olgan. Yeseninona motiv, konsept va adabiy unsurlarning Usmon Azim ijodidagi retsepsiyasini kuzatish turfa xil nazariy talqinlar chiqarishga imkon beradi. Misol uchun, S. Yeseninning isyonkorona ruhdagi mana bu she'ri U. Azim she'riyatida boshqa so'z va iboralar ko'magida aynan qad ko'targandek taassurot uyg'otadi:

Aldamasman o'zimni bu kun,
Yuragimda uqubatli g'ash.
Bezori deb nom oldim nechun?
Nega nomim bo'ldi janjalkash?
O'g'ri bo'lib o'rmon kesmadim,
Bo'yamadim qo'limni qonga.¹

Ko'pchilik nazdida janjalkash hisoblangan Sergey Yesenin shaxsiyati ittifoqo Usmon Azim qalamidan to'kilgan she'rning lirik qahramoniga mengzab ketadi. Ikkala she'r ham odamni quyushqondan chiqarib, bir qalqitadi:

O'lgin deding – yerga ko'mding –
Ildiz bo'ldim.
Ko'kka otding – yo'q bo'l deding –
Yulduz bo'ldim.
Tilim kesding – dilim aytdi –
Rost kalima...
Qiyin bo'ldi senga sho'rlik
Dushmanim-a!
Dushmanim-a, toshlar otib
To'ymaydiansan –
Tuproq bo'lay desam, nega
Qo'ymaydiansan?...²

Ikkala shoir ijodida uchraydigan bir motivli, lirik qahramonning tanglik holatidagi ahvolidan hikoya qiluvchi she'rlar talaygina.

Shunday qilib, Sergey Yesenin va Usmon Azim she'rlarining qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, shoirlar ijodiga xos asosiy mavzu – bu dunyoni va insonni mukammal ko'rish orzusidir. Ikki shoir asarlarida ham uyg'oq qalb hasratlari, halovatidan kechgan shaxs armonlari butun ko'lami, qarama-qarshiliklari, fojia-yu quvonchi, hasratu umidlari bilan gavdalanadi. O'z navbatida, bunday she'riyat ko'ngilga juda yaqin va shu bilan birga allaqanday nurli, yurakka va ruhga madad berguvchidir.

“Yesenin she'rlaridagi Vatan mavzusi va tabiat obrazlarining o'zbek she'riyatida gavdalanishi” deb nomlangan uchinchi bo'limda Yesenin she'rlaridagi Vatan mavzusi va tabiat manzaralarining o'ziga xos tarzidagi poetik talqini tahlil qilingan.

Rang-bo'yoq timsoli, tasvir ohangi, manzara lirikasi Yesenin she'riyatida peyzaj tasvirining xususiyatlari hisoblanadi. Taqqoslash, tasvirlar, metaforalarning tuzilishi, barcha og'zaki vositalar dehqon hayotidan olingani bois qadrdon va tushunarli. Bu haqda adabiyotshunos Bahodir Rahmonning xulosalari nihoyatda o'rinli: – Oq qayin – shoir yuragiga eng yaqin timsol. Quvonganda ham,

¹Есенин С. Форс тароналари. – Тошкент: “Янги аср авлоди”, 2007. – Б.4-5.

²Азим У. Сайланма. Шеърлар. – Тошкент: «Шарқ» нашриёт-матбаа концернининг бош тахририяти, 1995. – Б. 282.

qayg'urganda ham suyanadigan timsol. Hatto Vatanning bir butun qiyofasiga aylantira olgan. "Oh, u qayinlar, oppoq qayinlar. Qizlardek sarvinoz, suluv xushqomat", – deb tariflaydi yana bir she'rida. Bir to'rtligida esa "O'rmonlarda yig'lar oq qayinlar jim, Bu yerda kim o'lgan? Balki men o'zim", – deya motam tutayotgan jigariday ko'radi. Ko'rinadiki, shoir qalbi tabiat bilan omuxtalashib ketgan:

Endi qaytmam uyimga,
Men elkezar devona.
Ko'z tikibdir yo'limga
Ko'm-ko'k o'tloq yagona.
Unda meni sog'ingan
Faqatgina qichitqon,
Boshi quyi solingan
Chuchmomai nafarmon¹.

Ko'pgina metaforalar hamda insonlarni oddiy, tushunarli narsalarga o'xshatish tabiat hodisalarini anglashga intilishi asosida shakllanadi. Bu tamoyil Yesenining ilk obrazli poetikasiga asos bo'ldi.

Yesenindagi ushbu imajinistlik kayfiyat uning borliqni obrazli qabul qilishiga va jonlantirishiga xizmat qiladi. Yesenin avval boshidanoq imajinizmga moyil bo'lgan. Keyinchalik, u shu oqim asoschilaridan biri sifatida tanildi, hatto umrining oxirgi besh-olti yilida shu oqimga yetakchilik qildi. Imajinistlar ijodida epataj, ya'ni beboshvoqlik ohanglari kuchli bo'ladi. Rus va jahon adabiyotida "dehqon shoir" sifatida tanilgan Yesenin ijodining o'ziga xosligi ham aynan, yuqorida ta'kidlaganimizdek, har bir tuyg'uni tabiat prizmasida o'tkazganida, uni obrazlar vositasida qayta jonlantirganida bo'lib, bu haqda shoirning quyidagi iqrorini ko'rishimiz mumkin bo'ladi:

Quvvat bag'ishlasin
Yana ko'nglimga
Yangicha qishloqning
Mehrigiyosi.
Shuhrat keltirganday
Bir zamon menga
Hov o'sha qadrdon
Rusning biyasi. ("Fors taronalari", 29-b)

Tabiatni his qilmagan, uni she'riyatiga jo qilmagan shoir nazm gulshanida kam uchraydi, borliqni his eta olgan ijodkorgina haqiqiy shoir bo'lib yetishadi. Qishloq hayotini, manzarasini she'riyatga olib kirish an'anasi o'zbek shoirlari ijodida ham davom etganini ko'rishimiz mumkin bo'ladi, xususan, Tilak Jo'raning quyidagi misralarida aynan yuqoridagi ohang aks etadi:

Shaharlardan izlab men ma'no,
She'rga soldim pichan-o'roqni.
Bolalikdan qadrdon-oshno
Tun mavjida qalqqan o'roqni...²

Tilak Jo'ra o'z ijodida tabiat manzaralarini, mehridaryo, halol, mehnatkash

¹Есенин С. Замин дарғаси. Т.: Ғафур Ғулум номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1971. – Б. 19.

²Тилак Жўра. Рухият, 1990.-Б. 46.

qishloq odamlarining o'y-kechinmalarini, orzu-umidlarini ehtirosli misralarda, yorqin timsollarda aks ettirgan shoirdir. Har ikkala shoir ham o'z ovozigga ega va uni bashariyatga xizmat qildirishga oshiqadi, maishiy hayot tashvishlari qotirgan diydamiyga tabiatdek sof, beg'ubor, samimiy she'riyati orqali iliqlik olib kiradi, ko'ngil ko'zlarini yanada tiyraklashtiradi.

Tabiatning eng inja manzarasi hamda u orqali ifodalangan sog'inch tuyg'usi Yesenindan Muhammad Yusuf ijodiga ham kirib kelganligini ko'rishimiz mumkin bo'ladi. "Tanish terak, Ariq yoqasi", "Yalpiz hidi tutgan dalalar", "Shotutlar to'kilgan suv", "Oy nurida xanjardek Yaltiragan maysalar" tasvirlari shoirlarning tabiatga, vatanga bo'lgan yakdil munosabatini oydinlashtirib turadi. Yesenin she'riyatining jozibador ohanglari, mazmuni va shakli ko'pgina o'zbek shoirlari qatori M.Yusuf ijodiga ham yorqin sahifalar ochishga ko'mak berdi. Yuqoridagi bo'limlarimizda biz bu haqda atroflicha tuxtalib o'tganmiz.

Xullas, adabiyot xalqlar o'rtasida ma'naviy-madaniy, ijtimoiy aloqalarni bog'lovchi ko'prik bo'lib, bashar dunyoqarashining o'sishiga, ma'naviy kamoloti yuksalishiga xizmat qiluvchi vosita hamdir. Adabiy aloqalarning, adabiy retsepsiyaning rivoji esa bu yo'lda asosiy vosita bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

XX asrning eng yorqin va betakror shoirlaridan biri Sergey Yesenin o'zbek zamonaviy she'riyatiga ta'sirini o'rganish o'zbek-rus adabiy aloqalarining ayrim masalalarini hal qilishda muhim bosqichdir. Shoir lirikasining XX asr o'zbek she'riyatiga ta'siri yuzasidan olib borilgan tadqiqotimiz natijasida quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Sharq mumtoz adabiyotining rus shoir va yozuvchilari ijodiga ta'siri kuchli. Xususan, har bir obyekt timsol vazifasini bajaradigan simvolistlar asarlaridan farqli o'laroq, Sergey Yesenin ijodida sharqona adabiy tafakkurga xos ramziy yukni ko'tarishga mo'ljallangan badiiy tafsilot ustunlik qiladi. Sergey Yesenin ramzlarni borliqning mohiyati sifatida tushungan, ba'zi hollarda ular matnning yordamchi komponentlari sifatida talqin qilingan.

2. Sergey Yesenin she'riyati rus madaniyatining o'zbek adabiy tafakkuriga ta'sirining asosiy omillaridan biri, uning "Fors taronalari" turkumining o'zbek tiliga tarjimasida sharqona tafakkurga ega insonning ma'naviy olamiga chuqur kirib borishi, shoir ijodining o'ziga xosligi isbotlangan. Adabiyot xalqlar o'rtasida ma'naviy-madaniy, ijtimoiy aloqlarni bog'lovchi ko'prik bo'lib, bashar dunyoqarashining o'sishiga, ma'naviy kamoloti yuksalishiga xizmat qiluvchi vosita hamdir. Adabiy aloqalarning, adabiy retsepsiyaning rivoji esa bu yo'lda asosiy vosita bo'lib xizmat qilgan.

3. Sergey Aleksandrovich Yesenin boshqa rus shoirlaridan farqli ravishda sharqshunoslikka emas, balki sharq adabiy tafakkuriga tayangan. Sharq she'riyatida Allohga muhabbatni majoziy shaklda ifodalash an'anasi mavjud. Yesenin ham sharqona go'zallikka bag'ishlangan romantik motivli she'rlar yozganligi, ammo bu motiv niqobi ostida g'arb insonining Sharqqa muhabbati, shu zaminga bo'lgan ishtiyoqi "Fors taronalari", ya'ni Sharq she'riyati "gavharlari"ning eng sara topilmalarini o'zida mujassam etgan asar bo'lganligini va muallifning individual uslubi o'ziga xos ekanligini ko'rsatdi.

4. Yeseninining “tirik” va “temir”, shahar va qishloq, tabiat va sivilizatsiya o‘rtasidagi fojiali qarama-qarshilikka bag‘ishlangan turli janrdagi asarlarining obrazli va mavzuli birligi o‘zbek shoirlari Erkin Vohidov va Usmon Azim she‘riyatidagi metaforalar bilan deyarli bir xil. Bu esa ikki xalq she‘riyatidagi baytlar ohanglarining badiiy o‘xshashligi bilan asoslanadi.

5. Yesenin she‘riyatining O‘zbekiston xalq shoiri Erkin Vohidov tomonidan o‘zbek tiliga mohirona tarjima qilinishi butun bir avlod shoirlarini tarbiyalashda, qator yosh o‘zbek shoirlarining she‘riy qarashlari, fikrlari, she‘riy didi va saviyasining shakllanishida chinakam adabiy voqea bo‘ldi. Yesenin she‘rlarining o‘zbek tilidagi ilk tarjimalari o‘zbek adabiyotida o‘zining to‘liqligi, go‘zalligi, samimiy tili bilan sof badiiyat sifatida muhrlangan.

6. Sharq adabiyotidan doimiy ilhomlanib, o‘z ijodida Sharqqa yuzlangan Yesenin she‘riyati ko‘plab o‘zbek shoirlari ijodiga o‘z ta‘sirini o‘tkazdi. Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Muhammad Yusuf, Tilak Jo‘ra, Xurshid Davron, Usmon Azim singari o‘zbek shoirlari Yesenin she‘rlarini tarjima qilish bilan bir qatorda, o‘zlari ham uning mavzu va motivlari sarhadini kengaytirdilar. Xususan, Yesenin she‘riyatidagi ko‘pgina sharqona unsurlar o‘zbek shoirlari ijodida qayta jilolanib, o‘zgacha bir poetik ko‘rinishda qaytdi.

7. Sergey Yesenin va Usmon Azim she‘rlarining qiyosiy tahlili shundan dalolat beradiki, shoirlar ijodiga xos asosiy mavzu – bu dunyoni va insonni mukammal ko‘rish orzusidir. Ikki shoir asarlarida ham uyg‘oq qalb hasratlari, halovatidan kechgan shaxs armonlari butun ko‘lami, qarama-qarshiliklari, fojia-yu quvonchi, orzu-umidlari bilan gavdalanadi. Sergey Yesenin she‘riyatida uchraydigan fikr va g‘oya murakkabliklari aro ma‘no yashirishga urinishlar, urf bo‘lgan obrazli tashbehtar Usmon Azim tomonidan o‘zgacha idrok etilmoqdaki, unda chinakam isyon, jasorat namunasi namoyon bo‘lmoqda. Yeseninidagi isyonkorlik, qoliplarga sig‘maslik Usmon Azimda ham o‘z bo‘y-bastini to‘la ko‘rsatgan.

8. Yesenin ko‘plab o‘zbek shoirlari ijodiy kamoloti uchun o‘chmas iz qoldirdi. Ayniqsa, Tilak Jo‘ra ijodida bu yaqqolroq namoyon bo‘lgan. Tilak Jo‘ra ham Yesenin singari o‘z she‘rlarida tabiat timsollarini keltirishi, Vatanning yaxlit umumiy qiyofasini obrazli gavdalandirishi orqali kitobxonlar yuragidan joy oldi. Adabiy aloqalarning rivoji, adabiy retsepsiya tufayli bu mavzu-motivlar XX asr o‘zbek she‘riyatida qaytadan jilolandi, shoir g‘oyalarining o‘zbek adabiy tafakkuriga sintezlashuvi yuz berdi.

9. Sergey Yesenin lirikasining o‘zbek shoirlari ijodiga ta‘sirini tahlil qilish adabiyotlararo munosabatlarning chuqur mazmun-mohiyatini tasvirlash imkonini berdi. Shoir she‘riyati Sa‘diy, Firdavsiy, Hofiz Sheroziy, Alisher Navoiy obrazlari bilan boyitilgani ma‘lum. Keyingi davr o‘zbek shoirlari she‘rlarida paydo bo‘lgan yangi tashbehtar, o‘ziga xos motivlarni Yesenin lirikasi ta‘sirida yaratilgan deb hisoblash mumkin .

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 ПО
ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНЫХ СТЕПЕНЕЙ ПРИ САМАРКАНДСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ИНСТИТУТЕ ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

**САМАРКАНДСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ИНСТИТУТ
ИНОСТРАННЫХ ЯЗЫКОВ**

ХУДАЙБЕРДИЕВА ДИЛФУЗА МУХТАРОВНА

**ЛИРИКА СЕРГЕЯ ЕСЕНИНА В ПРИЗМЕ УЗБЕКСКОЙ ПОЭЗИИ
XX ВЕКА**

(на примере творчества Эркина Вохидова и Усмана Азима)

**10.00.06 – Сравнительное литературоведение, сопоставительное языкознание и
переводоведение**

**АВТОРЕФЕРАТ
диссертации доктора философии (PhD) по филологическим наукам**

Самарканд – 2023

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии за номером B2021.1.PhD/Fil 995.

Диссертация выполнена в Самаркандском государственном институте иностранных языков. Автореферат диссертации на трех языках (русском, узбекском и английском (резюме)) размещен на веб-странице Научного совета (www.samdchti.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyonet» (www.ziyonet.uz).

Научный руководитель:

Умурова Гузал Хотамовна
доктор филологических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Бушуй Татьяна Анатольевна
доктор филологических наук, профессор

Давронова Махфуза Исраиловна
доктор филологических наук (DSc), доцент


Ведущая организация:

Джизакский государственный педагогический университет

Защита диссертации состоится 17 июня 2023 г. в 10⁰⁰ часов на заседании Научного совета PhD.03/30.12.2019.Fil/Ped.83.01 по присуждению ученых степеней при Самаркандском государственном институте иностранных языков. Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, д. 93. Тел.: (99866)238-29-37; факс: (99878) 210-00-18; e-mail: info@samdchti.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Самаркандского государственного института иностранных языков (рег. № 61356). Адрес: 140104, Узбекистан, Самарканд, улица Бустонсарой, д. 93. Тел.: (99866) 238-29-37; факс: (99878) 210-00-18.

Автореферат диссертации разослан 7 июня 2023 года.
(реестр протокола рассылки за № 76 от 7 июня 2023 года).



И.М. Тухтасинов
Председатель Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор педагогических наук, профессор

Г.К. Мирсанов
Ученый секретарь Научного совета по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, доцент

Ш.С. Сафаров
Председатель Научного семинара при Научном совете по присуждению ученых степеней, доктор филологических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы исследования. История мировой литературы демонстрирует, что на разных этапах своего развития национальные литературы в различной степени взаимодействуют друг с другом, вступают в тесную связь, влияют друг на друга, создают новые художественные направления и формы. Решающую роль в этом процессе играют такие факторы, как взаимообусловленность, типологическое сходство, верность традициям восточного и западного художественного мышления и творческого поиска. Эти факторы расширяют возможности исследования нашей национальной литературы и популяризации в мире ее лучших образцов.

В рамках мировой литературы нам представляется логичным и естественным рассматривать ту или иную культуру с точки зрения межкультурных отношений, ибо любая национальная культура проявляется на фоне другой более глубоко и полно. Ярким примером такого рода взаимодействия в мировой литературе являются исторические и культурные связи русского и узбекского народов на протяжении более ста лет.

Сегодня Узбекистан вступает в качественный новый этап своего развития. Наша страна поставила перед собой важнейшую приоритетную задачу достижения национального возрождения путем национального прогресса. Эта великая цель может быть достигнута только в согласии и сотрудничестве с народами всего мира, строя открытое демократическое общество и укрепляя чувство уважения к национальным и общечеловеческим ценностям в нашей жизни. «Думаю, что с этой точки зрения важно изучать и продвигать на международном уровне узбекскую классическую и современную литературу, анализировать эту многогранную тему в связи с важнейшими процессами, происходящими сегодня в мировом литературном пространстве, формулировать необходимые научные и практические выводы, и определить наши будущие задачи, что имеет большое значение»¹. Наше исследование является первой попыткой последовательно проанализировать влияние одного из ярких и самобытных поэтов прошлого века Сергея Есенина на творчество представителей узбекской поэзии XX века Эркина Вахидова и Усмана Азима. Несмотря на то, что русско-узбекские литературные отношения изучаются уже много лет, актуальность этой проблемы объясняется тем, что многие вопросы в этом направлении до сих пор не решены.

Данное диссертационное исследование в некоторой степени служит выполнению задач, определенных Указами Президента Республики Узбекистан №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития нового Узбекистана на 2022 – 2026 годы», Постановлениями Президента Республики Узбекистан №ПП-2995 от 24 мая 2017 года «О мерах по дальнейшему совершенствованию системы хранения, исследования и пропаганды древних письменных источников», №ПП-3271 от 13 сентября 2017 года «О программе комплексных мер по развитию системы издания и распространения книжной

¹ Мирзиёев Ш. Приветственное слово участникам международной конференции «Актуальные вопросы изучения и продвижения узбекской классической и современной литературы на международном уровне» / «Народное слово», 7 августа 2018 г. <https://xs.uz/uzkr/4835>

продукции, повышению культуры чтения”, Постановлением Кабинета министров Республики Узбекистан №124-Ф от 16 февраля 2018 года “О проведении международной конференции на тему “Актуальные вопросы изучения и популяризации за рубежом узбекской классической и современной литературы” и другими нормативно-правовыми актами данной сферы.

